

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI  
XITOIY FILOLOGIYASI KAFEDRASI

# **BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Mavzu: Xitoy tilshunosligi rivojlanishida  
lug'atlarning o'rni va ahamiyati**

**Bajardi: Xitoy filologiyasi kafedrası  
4 -bosqich talabasi Urunbayeva M.A**

Toshkent - 2014

Kirish.....	3
I bob. Xitoy lug'atshunosligining nazariy asoslari.....	8
1. Xitoy tilining fonetik va fonologik xususiyatlari.....	8
2. Xitoy tilining morfologik xususiyatlari .....	10
3 Xitoy tili lug'atlari va kalitlar sistemasi .....	14
II bob. Lug'atlar, ularning turlari va xususiyatlari.....	20
1. Xitoy tili lug'atlarining tasnifi.....	20
2. Lug'atlarning tilshunoslik rivojidadagi o'rni.....	36
Xulosa.....	40
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	43
Ilova.....	45

## Kirish

Xitoy mamlakatimiz mustaqilligini birinchilar qatorida tan olganligini alohida ta'kidlash lozim. Toshkentda 1992 yil 2 yanvarda diplomatik munosabatlarni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma kommyunike imzolanishi bilan davlatlarimiz o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilgan. Bugungi kunda o'zaro munosabatlar zamon talablariga mos ravishda barcha yo'nalishlar izchil rivojlanmoqda. Davlatlararo munosabatlar izchil rivojlanib borar ekan, tabiiyki, turli maqomdagi uchrashuvlar ham davom etadi. Shu qatorda O'zbekistonning turli soha vakillari Xitoy mutaxassisleri bilan o'zaro malaka va bilimlarini, fikr va mulohazalarni almashinib kelmoqdalar.

Toshkentda xitoy tili va madaniyatini o'rganish bo'yicha Konfutsiy instituti faoliyat yuritayotgani mamlakatlarimiz o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlikning jadal taraqqiyotiga misol bola oladi. Poytaxtimizda 2005 yilda tashkil topgan ushbu institut o'zbekistonlik yoshlarga xitoy tili va madaniyatidan saboq berish barobarida, turli tadbirlar vositasi bilan ikki mamlakat o'rtasida gumanitar hamkorlikning rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ta'kidlab o'tganlaridek, "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro' - e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib - o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir"<sup>1</sup>. Yuqorida ta'kidlangan so'zlarga asoslanib shuni aytib o'tish joizki, hozirgi kun yoshlari, ya'ni biz mamlakatimizning ilm - fan, madaniyat va ma'rifat, texnika, ma'naviyati taraqqiyoti yo'lida o'zimizning bevosita xissamizni qo'shib, mamlakatimiz va xalqimizning yuksalish yo'lida chuqur izlanishlar olib borishimiz lozim. Yangi jamiyat asoslarini qurayotga bir vaqtda, yoshlarni sog'lom va barkamol avlod etib tarbiyalashda, shubhasiz, ilm - fan taraqqiyoti juda katta ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch"

Hozirgi kunda O'zbekiston - Xitoy munosabatlarining yanada mustahkamlanishi, mamlakatlarimizaro tuzilayotgan ta'lim shartnomalari, mamlakatimizga chet ellik til mutaxassislarining taklif etilayotganligi ta'lim samarasini oshirish, o'quvchi - talabalarda o'rganilayotgan tilga bo'lgan qiziqishining yanada ortishiga muhim asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasidagi aloqalar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin, ya'ni 1992 yilning 2 yanvarida O'zbekiston va Xitoy o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatilganidan so'ng ming yillik tarixga ega bo'lgan mamlakatlarimizaro aloqalar yangicha taraqqiyot va mazmun-mohiyat kasb etdi. O'tgan yillar davomida O'zbekiston Respublikasi - Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro sheriklik munosabatlari o'zining o'suvchanligi bilan ajralib turdiki, bugungi kunda ham siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi aloqalar tobora ravnaq topib bormoqda. Madaniyat va san'at hamisha xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilib kelgan. O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi izchil rivojlanib borayotgan madaniy aloqalar, fan, ta'lim, madaniyat va san'at namoyondalarining o'zaro tashriflari ham ayni shu ezgu maqasadga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy bosqichda ikki davlat o'rtasida o'zaro ishonchga, ochiqlik va hurmatga asoslangan faol siyosiy muloqot olib borilmoqda, mamlakatlarimiz o'rtasida barcha darajalardagi delegatsiyalarning, birinchi galda, davlatlar rahbarlari darajasidagi muntazam tashrif almashuvlarning mavjud ekanligi bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov davlat va rasmiy tashriflari bilan olti marotaba Xitoy Xalq Respublikasiga tashrif buyurdi. Amalga oshirilgan tashriflar ikki tomonlama munosabatlar tarixidagi muhim voqealar bo'lib qolgani barobarida ko'p qirrali O'zbekiston - Xitoy munosabatlarining yanada kengayishi va chuqurlashuviga ko'maklashdi. O'z navbatida, Xitoy Xalq Respublikasi raislari Szyan Szemin 1996 yili, Xu Szintao 2004 va 2010 yillari O'zbekistonga tashrif buyurdi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik xususida esa shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek yoshlari orasida xitoy tilini o'rganishga bo'lgan intilish yil sayin o'sib bormoqda. Bu borada Toshkent shahrida 2005 yildan beri faoliyat ko'rsatayotgan Konfutsiy institutining xizmati katta bo'lmoqda. Mazkur institut ko'plab yoshlarga xitoy tilining asoslarini o'zlashtirish, Xitoyning o'tmishi, madaniyati va zamonaviy taraqqiyoti bilan yaqindan tanishish uchun ajoyib imkoniyatlarni yaratmoqda. Samarqand shahrida Samarqand davlat chet tillari instituti bazasida Konfutsiy institutining filialini ochish masalasi ishlab chiqilmoqda. 2007 yildan buyon Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Xitoy tomonidan beg'araz yordam tariqasida taqdim etilgan zamonaviy lingofon asbob-uskunalari bilan to'la jihozlangan Xitoy tili markazi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

2012 yildan buyon Pekin chet tillar universitetida o'zbek tilini o'qitilishi yo'lga qo'yilgan. 2013 yilning 15 may kuni Shanxayda Shanxay universiteti huzuridagi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Jamoat diplomatiyasi ilmiy-tadqiqot instituti bazasida "O'zbekiston tadqiqotlari va ma'rifiy almashuvlar markazi"ning ochilishi marosimi bo'lib o'tdi. Yaqin oylarda Shanxay shahrida buyuk o'zbek shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiyning haykali ochiladi.

Xitoyshunoslikning O'zbekistonda rivoj topib, takomillashuviga o'zining bevosita xissasini qo'shgan mutaxassislarda M. Maxmudxo'jayev, f.f.n. dotsent Karimov A., f.f.n Nosirova S., Xoshimova S., f.f.n Ziyomammedov J, s.f.n Shozamonov Sh., Sultonova L.A larni alohida ta'kidlab o'tishimiz o'rinlidir.

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi 1991 yildan mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda, xususan, tilshunoslik sohasida ham siljishlar kuzatilmoqda. Ayni paytda, chet tillarini puxta o'rganish ilmiy nuq'tai nazaridan tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy tili chet elliklar tomonidan biroz o'rganilishi qiyin bo'lgan tillardan biri hisoblanadi. Asosiy qiyinchilik uning grammatik tuzilishida emas, balki, leksikasi, fonetika va fonologiyasi, o'ziga xos yozuv uslubi, shuningdek, morfologik va sintaktik xususiyatlarni tog'ri talqin qilishdadir. Har bir tilni o'rganish jarayonida leksik birliklarning morfologik, fonetik va grammatik jihatlarini puxta egallash, ushbu tilni amaliyotda qo'llashi

uchun muhim negizdir. Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi "Xitoy tilshunosligi rivojida lug'atlarning o'rni va ahamiyati" deb nomlanib, xitoy tilshunosligini har tomondan o'rganish, uning o'ziga xos jihatlarini belgilash, xitoy tilidagi izohli va ikki tilli lug'atlarni o'rganishga bag'ishlangan.

O'zbek xitoyshunoslari xitoy tilshunosligi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan. Biroq shu kunga qadar xitoycha - o'zbekcha va o'zbekcha - xitoycha lug'at tuzilmaganligi ishimizning yanada dolzarb mavzu ekanligining tasdiqlaydi. Hozirgi ikki tilli lug'atlarni o'rganish o'rganilgan manbalar asosida lug'atshunoslik, ya'ni, leksikografiya sohasida bilim va malakalarga ega bo'lish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Ishning o'rganilganlik darajasi.** Xitoy tilshunoslari tomonidan juda qadimdan amaliyotda qo'llanib kelinayotgan turli izohli lug'atlar, shuningdek, rus tilshunoslari tomonidan tuzilgan ikki tilli lug'atlar ilmiy nuqtai nazaridan talqin etilgan. Biroq bunday ilmiy izlanishlar va ularning natijalari o'zbek xitoyshunosligida rus tilshunoslari tomonidan o'rganganlik jihatiga nisbatan kam va ma'lum bir tematik terminlariga bag'ishlanganligini e'tirof etishimiz mumkin. Masalan, sport terminologiyasi bo'yicha Yakubov J. lug'at tuzgan bo'lsa, diplomatik terminlar, xitoy tilshunosligining rivojlanish tarixi bo'yicha Mahmudxodjayev. M. Nosirova S. ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shuningdek, qaysi yil bo'lmasidan qat'iy nazar, uning barcha jabhalarini qamrab oladigan, tilning barcha madaniy boyliklarini o'zida aks ettiradigan lug'atlarning mavjud bo'lishi til rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, o'zbek tilshunosligida ham ma'lum izlanishlar olib borilgan bo'lib, bu bizning tilimizdagi barcha jihatlarining yuksak darajada o'rganilib kelinayotganligi hamda O'zbekistonda tilshunoslikka bo'lgan qiziqish yanada kuchayib borayotganidan dalolat beradi. O'zbek tilshunosligi, xususan, lug'atshunoslik sohasiga o'zining beqiyos xissasini qo'shgan olimlarimiz M.Hamroyev, Ibrohim Yo'ldoshev, O'lmas Sharipova, A.A. Abduazizovdir.

**Bitiruv Malakaviy Ishning obyekt va predmeti.** Xitoy lug'atshunosligi, ya'ni leksikografiyasi ishimizning obyekt hisoblanib, rus va xitoy tilshunoslari

tomonidan yaratilgan va amaliyotga tadbiq etilgan lug'atlar vositasi va lug'atlarning tahlili ishimizning predmetini belgilaydi.

**Bitruv Malakaviy Ishning maqsad va vazifalari.** "Xitoy tilshunosligi rivojida lug'atlarning o'rni va ahamiyati" deb nomlangan Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi Xitoy lug'atshunosligi tarixi, rivojlanish bosqichlari va lug'atlarning xususiyatlarini tasniflash bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

1. Xitoy tilshunosligining rivojlanish bosqichlari bilan tanishish;
2. Xitoy tilining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tish;
3. Xitoy tilshunosligining o'ziga xos jihatlarini boshqa tillar bilan solishtirish;
4. Xitoy leksikografiyasi tarixiga oid ilmiy va ilmiy-uslubiy manbalarni to'plash va tasniflash;
5. Xitoy lug'atlari yaratilishi manbalarini o'rganish;
6. Xitoy lug'atlari turlari va xususiyatlarini o'rganish.

**Bitruv Malakaviy Ishning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** "Xitoy tilshunosligi rivojida lug'atlarning o'rni va ahamiyati"ga bag'ishlangan ishimiz mavzusini o'rganish natijalari "xitoy tili", "xitoy tili leksikologiyasi" kabi fanlarda hamda "xitoy tili leksikografyasi" kabi maxsus kurslarni o'qitishda amaliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Bitruv Malakaviy Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati, shuningdek, ilovadan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, o'rganilganlik darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati batafsil bayon etilgan. Birinchi bobda xitoy tilshunosligining rivojlanish bosqichlari, yozuv turlari, fonetik va morfologik jihatlarini o'rganish, xitoy yozuvi tarixi, xitoy tilining o'ziga xos jihatlarini ochib berilgan bo'lsa, ikkinchi bob xitoy lug'atlariga bag'ishlangan bo'lib, qadimdan to hozirgi kungacha yaratilgan va saqlanib qolgan barcha lug'atlarga tasnif berilgan bo'lib, ularning kasb etgan ahamiyatidan tortib to lug'atlarni tashkil etuvchi iyerogliflar sonigacha ta'rif berib o'tilgan. Xulosa qismida har bir lug'atning qisqacha ta'rifiga va lug'atlarning tilshunoslik rivojidagi o'rni va ahamiyatiga to'xtalib o'tdik.

## **I bob. Xitoy lug'atshunosligining nazariy asoslari**

### **1. Xitoy tilining fonetik va fonologik xususiyatlari**

Xitoy tili — xitoy-tibet tillari oilasiga mansub tillardan biri. Xitoy tili zamonaviy tillar ichida eng qadimgisi hisoblanib, hozirgi kunda qo'llaniladigan yozuvlarning eng qadimgisi hamdir. Buning isboti sifatida qadimgi, eramizdan avvalgi XIV—XI asrlarga oid qurbonlikka keltirilgan hayvonlar va toshbaqa kosalariga o'yilgan folbinlik yozuvlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ular Shan-In davrida ham rivojlangan til tizimi haqida dalolat beradi. Xitoy tiliga oid qadimgi yozma yodgorliklar (tosh, bronza, suyak va boshqa narsalarga yozilgan yozuvlar) miloddan avvalgi II ming yillikning 2-yarmiga oiddir. Qadimgi adabiy yodnomalar — "Shutszin" ("Tarix kitobi") va "Shitszin" ("Qo'shiqlar kitobi") miloddan avvalgi 1-ming yillikning 1-yarmiga oid. Ammo ularning tadqiqi XX asr boshlariga to'g'ri keladi va to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda<sup>2</sup>.

Xitoy tilining fonetik me'yorlari Pekin shevasi talaffuziga asoslanadi. O'sha davrdagi jonli lahjalar asosida qadimgi adabiy xitoy tili — Venyan vujudga kelgan. U uzoq vaqt mobaynida muloqot vositasi bo'lgan va asta-sekin og'zaki nutqdan chiqq boshlagan. Eramizning 1000-yillariga kelib esa so'zlashuvchilar orasida umuman tushunarsiz tilga aylangan. Bu adabiy til o'zida qadimiy xitoy tili me'yorlarini aks ettirgan va XX asrgacha adabiy til sifatida foydalanilgan. Bu vaqt mobaynida til bir qator o'zgarishlarga uchragan. Buni birgina 雨 – yu – yomg'ir iyeroglifi misolida ko'rishimiz mumkin. Qadimgi Xitoy tili (上古汉语) me'yoriy adabiy xitoy tili miloddan avvalgi XIV asrda Huanhe daryolari bo'yida paydo bo'lgan. Keyinchalik butun Xitoy bo'ylab tarqalgan. Qadimgi xitoy yozuvi esa o'zining yozuv shakli bilan nafaqat Xitoy, balki unga chegaradosh bo'lgan davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, Sharqiy Osiyodagi Yaponiya, Koreya va Vetnam davlatlarini aytib o'tish mumkin. Ushbu davlatlar uchun ham qadimgi

---

<sup>2</sup> M.H.Mahmudxadjayev, M.A.Turatova "Xitoy tili tarixiy fonologiyasi" Toshkent - 2009

xitoy adabiy tili asosiy til bo'lib hisoblanadi. Bu holat esa XX asrning boshlariga qadar davom etib kelgan. Xitoy tili an'alarining asosiy elementi sifatida rasmiy yozuv tili hisoblangan Venyan (xit. 文言文) tili ko'rsatiladi<sup>3</sup>. Keyinchalik u og'zaki jonli tildan uzoqlashib, milodiy I ming yillikda xalq tushunmaydigan til bo'lib qolgan. Shu sababli milodiy I ming yillikda yangi (sodda) yozma til — bayxua vujudga keladi; shimoliy bayxua tili keyinroq umumxalq — putunxua (umumxalqqa tushunarli til) uchun asos bo'ldi. 1919-yilning 4 maydagi harakatlardan so'ng, Xitoyda adabiy til deb “Baihua” 白话 (“Tushunarli til”) e'lon qilindi. “Baihua” Xitoyning shimoliy sheva asosida vujudga kelgan. XX asrning 1-yarmida putunxua qadimgi xitoy tili — Venyanni tamoman siqib chiqarib, yagona milliy til bo'lib qoldi<sup>4</sup>.

Xitoy tilining rivojlanish tarixi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mifik – ya'ni, turli mif va afsonalar asosida vujudga kelgan til. Bu til faqat og'zaki nutqda mavjud bo'lgan.
2. Arxaik – qadimiy suyaklarga o'yib yozilgan yozuvlardir. Bu eramizdan avvalgi XIV-XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu yozuvlar qadimda Shan-In va Ziyen deb atalgan.
3. Ilk klassikagacha bo'lgan davr – buning asosini bronza idishlarga tushirilgan yozuvlar tashkil etadi va ular eramizdan avvalgi X-VII asrlarga tegishlidir. Ushbu yozuvlar “Jinven” deb nom olgan.
4. So'nggi klassikagacha bo'lgan davr – bu toshlarga bitilgan yozuvlar bo'lib, “Tarix kitobi” va “Qo'shiq kitobi”larida saqlanib qolgan. Bu yozuvlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlarga tegishlidir.

---

<sup>3</sup> Karimov A.A. "Xitoy tili grammatikasi" Toshkent

<sup>4</sup> M.H.Mahmudxadjayev, M.A.Turatova "Xitoy tili tarixiy fonologiyasi" Toshkent - 2009

5. Erta klassik davr – bular tarixiy va xronologik yozuvlar bo'lib, Konfutsiychilik va Daosizm klassikasi hisoblanadi. Ular eramizdan avvalgi V-III asrlarda mavjud bo'lgan.
6. So'ngi klassik davr – bu davrga oid yozuvlar Sima Chianning “Tarixiy yozuvlar” asarida saqlanib qolgan. Bu davr eramizdan avvalgi II asr va eramizning II asrini o'z ichiga oladi.
7. Post klassik davr – eramizning III-V asriga to'g'ri keladi. Bu davrda esa turli shoirlar, faylasuflarning turli she'r va qo'shiqlari paydo bo'la boshlagan. Ushbu davrlar ichida eramizdan avvalgi V-II asrga doir yozma yodgorliklar eng muhimi hisoblanadi.

## **2. Xitoy tilining morfologik xususiyatlari**

Tilshunoslik yoki lingvistika tillarni o'rganuvchi fandır. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo'lib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi (grammatikasi) va uning ma'nosi (semantikasini) o'rganadi. Grammatika — morfologiya (so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi), sintaksis (so'zlarning iboralarga va gaplarga biriktrilish qoidalari) va fonologiya (tilni abstrakt tovushlar yordamida o'rganish) fanlarini qamrab oladi<sup>5</sup>.

Xitoyda xitoy tili, va umuman tilni o'rganish ikki ming yillikdan ortiq tarixga ega. Shu bilan birga to XIX asr oxirigacha tilshunoslik mustaqil yo'nalishda rivojlangan. Lekin shu bilan birga ayrim davrlarda unga Hindiston ilm-fani ta'sir ko'rsatib kelgan. Xitoy tilshunosligi o'zida dunyo tilshunosligida yunon-rim, qadimgi Hindiston va arab tilshunosligi (so'ngisi oxirigacha mustaqil hisoblanmaydi) qatorida mashxur uch yoki to'rt an'analarning birini mujassamlashtiradi. Xitoy tilshunosligi, xususan, Yaponiya va boshqa chegaradosh mamlakatlar tilshunosligiga ham ta'sir o'tkazgan. Ammo uning dunyoviy ahamiyati uncha katta emas: u yevropa ilm-faniga deyarli ta'sir o'tkazmagan (shu qatorda hind an'analari yevropa tilshunosligiga o'z ta'sirini o'tkazdi) .

---

<sup>5</sup> M.A.Hamroyev. “O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi”

Ammo xitoy tilshunosligi an'analari yevropa an'alaridan tarkibiy jihatdan farqli o'laroq til asosida rivojlanganlarning yagonasi hisoblanadi. Sharq tillarini tavsiflashda haligacha yevropa tillariga qaraganda xitoy an'anaviy usullari mos hisoblanadi (ya'ni, ma'lumotni yanada keng va yanada qisqa shaklda yetkazib berish).

Qadimgi va o'rta asr Xitoyda til o'rganish bilan bog'liq bo'lgan filologiyaning uch tarmog'i mavjud bo'lgan. Ulardan birinchisi eng qadimgisi bo'lib, 训诂 sungu (sxolastika)<sup>6</sup> ; bu fan qadimgi so'zlarni izohlash, ularning ma'nosini tahlil qilish va yoki tarjima orqali, yoki qadimda mavjud bo'lgan, lekin keyinchalik unutilgan yoki o'zgargan predmetlar va hodisalarni tasvirlash bilan shug'ullanadi. Yana biri yozuvni o'rganish, iyerogliflarning tarkibini aniqlash va etimologiyasi bilan shug'ullanadi. Uchinchi esa fonetika, ya'ni, aniqroq qilib aytganda fonologiya deb nomlanadi. Buning sababi esa uning faqat tilda mavjud fonetik o'zgarishlarni aniqlash bilan shug'ullanadi, lekin u tovushlarning jismoniy tabiati yoki ularni talaffuz qilishni deyarli o'rganmaydi. Fonetika qolgan ikki tarmoqqa qaraganda kechroq rivojlangan bo'lsada, Xitoyda ancha oldinlab ketdi. Tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri grammatika sxolastikadan XIII - XIX asrlarda asta - sekin ajralib chiqib boshlaydi. Xitoy tilshunosligida asosiy obyekt nutq emas, balki iyeroglif hisoblanadi. Iyeroglif yoziladi, o'qiladi va ma'noga ega bo'lib, bu uch aspekt uch har xil ilm-fan orqali o'rganilardi.

Val Li xitoy tilshunosligining uch asosiy davrga bo'lib o'tadi: birinchi davrda faqat sxolastika rivojlangan bo'lib, ikkinchi davrda (eramizning V asrda) asosiy yo'nalish fonetika bo'lib qoldi, uchinchisida esa (Sin sulolasi davri, ya'ni XVII asr o'rtalaridan boshlab) har uch tarmoq rivojlana boradi<sup>7</sup>.

Fonetikani o'rganishda o'z navbatida uch bosqich ajratib o'tiladi: birinchisi fonetik lug'atlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi - fonetik jadval, uchinchi Van Lining uchinchi bosqichi bilan bo'g'liq va tarixiy fonetika

---

<sup>6</sup> O'rta asrlarda falsafiy tizim

sohasidagi tadqiqotlar bilan, ya'ni o'tgan davrlar xitoy tilida fonetik tizim elementlarini tiklash bilan izohlanadi.

Yevropa tilida xitoy tilshunosligiga bag'ishlab yozilgan ilk umumiy tarix T.Uotterson qalamiga mansub; bu uning "Xitoy tili haqidagi esseylar"ining<sup>1</sup> birini tashkil etadi; An'anaviy xitoy tilshunosligi haqidagi asosiy ma'lumotlar P.Shmidtning "Mandarin grammatikasi amaliyoti"ning lingvistik kirishda aks etadi. XX asrning 30-40 yillarida Xitoyda xitoy tilshunosligining alohida bo'limlariga bag'ishlangan juda ko'p kitoblar chop ettirilgan, ayniqsa fonetika sohasida, hamda o'zida so'roq adabiyotining tarixiy ko'rinishini mujassamlashtiradi. Ular orasida eng muhimlaridan 1935 yilda chop etilgan va keyinchalik Xitoyda qayta chop ettirilgan Van Lining "Xitoy fonetikasi" va Chan Shiluning "Xitoy fonetikasi tarixi"dir.

1953 yilda Lo Chaneyning Xitoy tilshunosligi tarixiga bag'ishlanagan bayoni chop etildi. Xitoy tili tarixini o'rganishga bag'ishlangan maqolalar to'plami yzpon kollektivligida yozilgan "Xitoy tilshunosligi ensiklopediyasi"ning (1957) besh bo'limini tashkil etadi. 1959 yilda ular Xitoyda bir necha bor qayta chop etilgan. Xitoy tilini o'rganish tarixi Xitoyda XIX asr oxirigacha xitoycha nashrdan chiqqan. Xitoyda lingvistikaga bag'ishlangan tadqiqotlarga Tsen Tsi Syanning tilshunoslikning umumiy tarixida alohida o'rin ajratiladi.

Xitoy tilidagi morfema va sodda so'zlar odatda bir bo'g'inlidir. Bo'g'in tarkibiga kiruvchi undosh va unli tovushlar (ularning soni haqida hanuz yagona fikr yo'q) ma'lum bir tartibda joylashadi. Masalan, bir necha undosh tovush ketma-ket kelishi mumkin emas, biroq unlilar ketma-ket, o'zaro birikib kelishi mumkin. To'liq tarkibli xitoy bo'g'inida birinchi o'rinda hamisha undosh tovush turadi, ikkinchi o'rinda 1unli, undan keyin 2 unli, oxirida esa yarim (kuchsiz) unli yoki burun tovushi joylashadi. Qat'iy tartibga qaramasdan Xitoy tilida bo'g'in tarkibiga kiruvchi tovushlarning hammasi ham bir-biri bilan birika olmaydi, shuning uchun xitoy bo'g'inlarining miqdori chegaralangandir. Putunxuada 414 bo'g'in, ton (ohang—musiqiy ovoz) variantlarini hisobga olganda, 1324 bo'g'in bor. Xitoy tilida ton (ohang), tovushga o'xshab, ma'no farqlash vazifasini bajaradi. Agar bir

bo'g'in 4 xil ton bilan talaffuz etilsa, 4 ta har xil ma'noli so'z hosil bo'ladi.

Morfema odatda bir tarkibli hisoblanadi. Eski bir tarkibli so'zlarning bir qismi sintaktik jihatdan mustaqil emasdir, ya'ni ular murakkab yoki yasama so'zlar tarkibida qo'llaniladi. Xitoy tilida ko'p hollarda murakkab so'zni so'z birikmasidan ajratib olish juda qiyin. Xitoy tilida bir bo'g'inli so'zlarga nisbatan ikki bo'g'inli so'zlar ko'proq. Terminologiyaning rivojlanishi natijasida ikkidan ortiq bo'g'inli so'zlar ham ko'paymoqda. So'z yasalishi so'z qo'shish, affiksatsiya va konversiya (bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumiga o'tish) orqali amalga oshiriladi. So'z yasash qoliplari so'z birikmalari qoliplariga o'xshash bo'lganligidan ba'zan yasama, qo'shma so'zlarni so'z birikmalaridan ajratib olish qiyin.

Xitoy tilida deyarli o'zlashma so'zlar yo'q. O'ziga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega. Xitoy tili asosan, yakkalangan (ba'zi manbalarda amorf deb ham beriladi) tillardan bo'lsada, ayrim hollarda agglyutinativ belgilar ham uchraydi. Xitoy tilida iyeroglifik yozuvdan foydalanadi.

Xitoy iyerogliflari dunyodagi eng qadimiy yozuvlardan biri hisoblanib, dunyo tillari ichida o'zining yozuv belgilari soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Belgilarning soni hozirgi kunda 85000 dan ortiq va ularning 6000 ga yaqini umumqo'llaniladigan iyerogliflar hisoblanadi. Xitoy iyerogliflari tarixi "Piktogramma"larga borib taqaladi. Piktogramma – bu biror narsa yoki hodisa ifodalangan belgili surat. Hozirgi kunga kelib bunday yozuv faqat 3400 yillik tarixga ega toshbaqa kosalarida saqlanib qolgan. Bundan shu ma'lum bo'ladiki, o'sha paytlardayoq ma'lum me'yorlarga asoslangan yozuv mavjud bo'lgan. Piktogrammalar to hozirgi davrga qadar o'zgarib, yozuv belgilariga aylangan. Toshbaqa kosalariga yozilgan yozuvlar davridan to hozirgi zamonaviy yozuvlarga qadar 10 xil yozuv turi mavjud bo'lgan. Ulardan asosiylari 5ta, bu usullar ham 2ga bo'linadi va 3tasi hozirda ham qo'llaniladi. 2tasi qadimiy yozuv hisoblanib, ularni faqatgina kalligrafiya san'atida uchratish mumkin. Quyida ularning 5tasiga to'xtalib o'tamiz:

1. 楷书 Kaishu – bu namunaviy yozuv usuli bo'lib, 1000 yildan beri qo'llaniladi va zamonaviy xitoy ieroglif yozuvida keng qo'llaniladigan asosiy usul hisoblanadi. Bu usul komputer shriftlari va tepografiyada ishlatiladi. Uning o'ziga xos xususiyati belgilarning aniq tartibidir, ya'ni ieroglifdagi har bir belgi aniq ko'rinib turadi va sekin yoziladi.
2. 新书 Sinshu – bu yozuv turiga “yuruvchi yoki yuguruvchi xat” nomi berilgan. Bu usulning o'ziga xosligi ieroglifdagi nuqta yoki boshqa belgilar bir-biriga birikkan holda ifodalanadi. Bu usul tez yozilishi bilan ham boshqa yozuv turlaridan farq qiladi.
3. 草书 Tsao shu – ushbu yozuv turi ham tez yozuv usuli bo'lib, bu usulda ko'pincha ba'zi bir belgilar tushib qolishi ham mumkin. Shuning uchun ham bu usuldagi yozuvlarni tushunish biroz qiyin.
4. 装束 Juangshu – bu yozuv qadimiy bo'lib, “qayd etuvchi yoki ish yozuvi” deb nom olgan. U toshbaqa kosalari va turli hayvon suyaklariga bitilgan yozuvdir. Bu yozuv usulidagi belgilarda hech qanday ilgaklar bo'lmaydi. Bu usul faqat kalligrafiya va qadimgi san'at asarlarida saqlanib qolgan.
5. 隶书 Lishu – qadimda ma'lum bir davlat hodimlarining qayd etish usuli bo'lib, bunda ko'proq davlat ishlari olib borilgan. Bu usul Xan sulolasi davrida qo'llanilib, eramizdan avvalgi I asrning o'rtalarida mavjud bo'lgan. Bu shriftlarning barchasi hozirgi zamon komputer yozuvlari orasida keng tarqalgan.

### **3. Xitoy tili lug'atlari va kalitlar sistemasi**

#### **Lug'atlar va ularning turlari**

Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos-co'z, so'zga oid va

grapho-yozaman) yoki lug'atchilik deyiladi. Maqsad va vazifalariga ko'ra leksikografiya ikkiga bo'linadi:

a) ilmiy leksikografiya lug'atchilikning nazariy masalalari bilan shug'ullansa;

b) amaliy leksikografiya bevosita lug'at tuzish ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

- 1) ona tilini va boshqa tillarni o'rgatishga xizmat qiladi;
- 2) ona tilini tasvirlash va me'yorlashtirish vazifasini o'taydi;
- 3) tillararo munosabatlarni ta'minlaydi;
- 4) til leksikasini ilmiy tekshiradi va talqin qiladi;

Lug'atlar, avvalo, maqsadi va mo'ljaliga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- 1) umumiy lug'atlar;
- 2) maxsus lug'atlar

Umumiy lug'atlar keng o'quvchilar ommasiga, maxsus lug'atlar esa tor doiradagi kishilar-alohida soha mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi. Har ikkala tur lug'atlar ham o'z o'rnida yana ikkiga bo'linadi:

- entsiklopedik lug'atlar;
- filologik lug'atlar.

Demak, lug'atlarni umumiy entsiklopedik lug'atlar va maxsus entsiklopedik lug'atlar, umumiy filologik lug'atlar va maxsus filologik lug'atlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Lug'atlar so'zlarga xos barqaror jihatlarnigina qamrab olish imkoniga ega. Demak, semasiologiya sohasida amalga oshirilgan izchil sistemaviy tadqiqotlar

lugʻatni tartiblashtirishda muhim tayanch omil boʻlib, leksikografni cheksiz nutqiy maʼnolarni tartibga keltirish, lugʻatlarga kiritish hamda izohlash tashvishidan xalos etadi. Bunda har bir voqelangan nutqiy lugʻaviy maʼnoda qorishgan oʻzga hodisalar tajallilarini eʼtibordan soqit qilish, ushbu birlik (leksemaning)ning asl zotiga daxldor boʻlgan unurni ajratish va tavsiflash leksikografik talqinda muhim ahamiyatga ega.

Tildagi jamiki soʻzlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan **lugʻatshunoslik** shugʻullanadi. Mukammal tuzilgan lugʻat va soʻzliklar u yoki bu tilning boyligini oʻzida toʻplaydi. Oʻzbek tilshunosligida ham lugʻatlar qadimdan yaratib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshgʻariy tomonidan XI-asrda yaratilgan “Devonu-lugʻotit-turk”, XVI-asrda usmonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lugʻatlari tarixdan bizga maʼlum. Lugʻatlar ikki guruhga boʻlinadi:

**Qomusiy lugʻatlarda** mashhur shaxslar, ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida maʼlumot beriladi. “Oʻzbek milliy ensiklopediyasi”, “Salomatlik ensiklopediyasi”, “U kim, bu nima” kabi lugʻatlar shular jumlasidandir.

**Lingvistik (tilshunoslik) lugʻatlar** bir tilli va koʻp tilli boʻladi. Bir tilli lugʻatlarga imlo lugʻati (soʻzlarni toʻgʻri yozishga yordam beradi), chappa (ters) lugʻat (soʻzlar oxirgi harfi boʻyicha alifbo tartibida joylashtiriladi), orfoepik lugʻat (soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishga yordam beradi), morfem lugʻat (soʻzlarni oʻzak va qoʻshimchalarga ajratishga yordam beradi), oʻzlashma soʻzlar lugʻati (chet tillardan kirgan soʻzlarga taʼrif beriladi), frazeologik lugʻat (iboralar lugʻati), terminologik lugʻat (maʼlum fan sohasi boʻyicha atamalarga izoh beriladi), chastotali lugʻatlar (maʼlum asarlarda soʻzlarning qoʻllanish darajasi haqida maʼlumot beradi), paronimlar lugʻati (tilda mavjud boʻlgan talaffuzdosh soʻzlar haqida maʼlumot beradi).

Xususan, ozbek tilini misol qilib oladigan boʻlsak, 1981-yilda yaratilgan “**Oʻzbek tilining izohli lugʻati**” ikki jilddan iboratdir. Bu lugʻat soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari haqida toʻla maʼlumot beradi. Bunday

lugʻatlar maʼlum bir ijodkor asarlari boʻyicha ham yaratilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy asarlari uchun yaratilgan 4 jildlik lugʻatda 60 000 dan ortiq soʻz berilgan. Koʻp tilli lugʻatlarga tarjima lugʻatlari kiradi. Oʻzbek tilida mavjud boʻlgan barcha soʻzlar (shu jumladan, sheva soʻzlari ham yigʻilsa, 100-120 ming soʻzdan oshib ketadi).

Biz oʻqiyotganimizda yoki yozayotganimizda, notanish yoki tushunarsiz iyerogliflarga duch kelib qolamiz yoki ularni qanday yozilishini yodimizdan chiqarib qoʻyamiz, bu holatda lugʻat bizga yordamga keladi. Iyerogliflar koʻrsatkichda xitoy grafik sistemasi ketma-ketligi boʻyicha joylashgan boʻladi (agar bu xitoy tili lugʻati boʻlsa). Ularni quyidagi qoida asosida qidirish lozim:

- 1) kalitlat koʻrsatkichida kerakli kalit imlo chiziqlari soni boʻyicha topiladi va qidirilayotgan iyeroglif koʻrsatkichi betiga qaraladi;
- 2) qidirilayotgan iyeroglif imlo chiziqlari aniqlanadi, kalit imlo chiziqlari soni hisoblanmaydi;
- 3) qidirilayotgan iyeroglif koʻrsatkichidan koʻrsatilgan bet topiladi va imlo chiziqlari soni boʻyicha iyeroglif topiladi hamda koʻrsatilgan betdan kerakli iyeroglif topiladi.

Fransuz yozuvchisi Anatol Frans lugʻat haqida "Alfavit tartibida tuzilgan borliq" deb tasnif berib oʻtgan<sup>8</sup>. Lugʻat - bu nafaqat maʼlumotnoma, balki milliy madaniyatning ajralmas qismi hamdir. Zero, bir soʻzning oʻzida maishiy hayotning aksariyat jabhalari qamrab olingan boʻladi. Tilning barcha leksik jilolari lugʻatda aks etadi. Lugʻat tuzish esa bu mashaqqatli va uzoq muddatli mehnatdir. Afsuski, bir lugʻatning oʻzida u yoki bu sohaning barcha yoʻnalishlarini qamrab oluvchi, til haqidagi barcha maʼlumotlarni mujassamlashtiruvchi lugʻatlar yoʻq. Shuning uchun ham barcha milliy leksikografiyalarda biz oʻnlab, hattoki yuzlab turli soha va yoʻnalishga oid lugʻatlarni uchratishimiz mumkin.

---

<sup>8</sup> «Тихоокеанский государственный университет».  
Кафедра русской филологии  
Дисциплина на тему "Лингвистика"

Lug'atlarni ikki toifaga ajratishimiz mumkin: ensiklopedik va filologik (tilshunoslik) lug'atlari. Ensiklopedik lug'atlarda u yoki bu holat, hodisa, tushunchaning izohi beriladi. Ensiklopedik lug'atlar orasiga ensiklopediyalar, ilmiy ma'lumotnomalar, terminologik lug'atlar kiradi. Lingvistik lug'atlarda esa so'zlarning izohi (asosiy ma'no, to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma manolar) berilgan. Lingvistik (filologik) lug'atlar ko'p tillik, ikki tillik va bir tillik lug'atlarga bo'linadi. Ikki va ko'p tillik lug'atlar tarjimali lug'atlar bo'lib, ularda bir so'zning ma'nosi ikkinchi til bilan solishtirilgan holda izohlanadi (masalan, inglizcha - ruscha, ruscha - inglizcha, ruscha-inglizcha - arabcha va hokazo). Bir tillik lug'atlarda so'zlar shu til doirasida izohlanadi. Bir tillik lug'atlar kompleks (masalan, izohli lug'atlar) va aspektiv, ya'ni u yoki bu jihatni aks ettirishi mumkin (masalan, sinonimik, so'z yasovchi va hokazo).

Ensiklopedik lug'atlar dunyoni aks ettiradi, tushunchalarni, mashxurlar haqida biografik ma'lumotlar berib o'tadi, mamlakatlar va shaharlar, diqqatga sazovor voqealar haqida ma'lumot beradi.

### **Lug'atlarning asosiy turlari:**

1. Izohli lug'atlar
2. Izohli lug'atlarning bir turi sifatidagi frazeologik lug'atlar
3. Sinonimik lug'atlar
4. Antonimlar lug'atlari
5. Omonimlar lug'atlari
6. Ortologik lug'atlar va ularning turlari
7. Orfografik lug'atlar
8. Orfoepik lug'atlar
9. Dialektik lug'atlar
10. Tarixiy lug'atlar (leksikaning vaqtlararo izohli lug'ati )
11. Etimologik lug'atlar (so'zning ilk tarkibi va uning qadimdagi mazmun-mohiyatining elementlari haqida ma'lumot beradi)

12. Chet tili so'zlari lug'atlari
13. So'z yasalishiga oid lug'atlar va ularning turlari.

Filologik lug'atlar so'zlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Filologik lug'atlarning har xil turlari mavjud. Ko'pchilikka ikki tillik lug'atlar tanish: ularni chet tilini o'rganayotganda, bir tildan ikkinchi tilga matn tarjima qilayotib foydalanishimiz mumkin. Ayniqsa, bir tillik lug'atlar o'ziga xosdir: so'zning to'g'ri yozilishi haqidagi ma'lumotlar orfografik lug'atlarda mavjud bo'lsa, so'zning to'g'ri talaffuzi haqida orfoepik lug'atlar ma'lumot beradi.

Etimologik va tarixiy lug'atlar so'zning kelib chiqishi, tildagi rivojlanish bosqichlari, rivojlanish yo'lida uchragan o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi. Grammatik lug'atlar so'zning morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rgatadi. Chet tili so'zlari lug'atlari ham mavjud. Shuningdek, terminologik, dialektik, yozuvchilar tili lug'atlari ham bor. Lug'atlar til leksikasining barcha jabhalarini emas, balki bir guruh so'zlarini izohlab kelishi mumkin: sinonimlar, antonimlar, omonimlar va paronimlar lug'atlari shular jumlasidandir.

Bu ro'yhat nisbatan qadimiyroq leksikografik an'analarga ega ikki tur lug'atlarsiz to'liq bo'lmaydi. Bular izohli va ideografik lug'atlardir. Har ikkisida ham so'z ma'nosi izohlanadi. Ammo ularning farqi shundaki, izohli lug'atlarda so'zlar ketma - ketligi alfavit bo'yicha bo'lsa, ideologik lug'atlarda narsa va tushunchalarning ayrim umumiy xususiyatlariga asosan ajratilgan guruhlar ketma-ketligidan iborat. (masalan, "odam", "hayvon", "harakat" va hokazo).

Lug'at tuzish - juda mashaqqatli mehnatdir. So'zning umumlingvistik o'rni, so'zning ma'nolari va ularning qo'llanilishi, grammatik va fonetik xususiyatlaridan tashqari, lug'at tuzish usullari va texnikasini bilish va lug'at tarkibini o'rganish lozim.

## **II bob. Lug'atlar, ularning turlari va xususiyatlari**

### **1. Xitoy tili lug'atlarining tasnifi**

#### **Xitoy hududida ilk lug'atlarning yaratilish tarixi va tasnifi**

Leksikografiya tarixi mukammal va funksional lug'atlarni tuzish jarayonida shart - sharoitning, leksikografik urf - odatlarning uzluksizligining tashkil etilishini taqozo etadi. So'zlarda aks etilgan vaqt, ijtimoiy jarayonlar, o'tgan va o'sha davrning avlod vakillarining hayoti va turmush tarzi, umumiy qarashlari va oqimlarining barchasi lug'atlarda o'zining umumiy aksini ifodalashi kerak.

#### **Izohli lug'atlar. Umumiy tasnif.**

Lingvistik lug'atlar orasida izohli lug'atlar muhim ahamiyatga ega o'rni bor. Izohli lug'atlarning asosiy maqsadi alohida iyerogliflar, so'zlar va frazeologizmlarning yozilishi va talaffuzini tog'ri ko'rsatib, shuningdek, ularning ma'nosi va qo'llanilishini izohlab berishdan iboratdir. Hozirgi zamon lug'atlarida iyerogliflarning yozilishi qisqa yoki to'liq variantlarda beriladi. Ayrim lug'atlarda faqat qisqartirilgan variant berib o'tiladi. Iyerogliflarning talaffuzi turli usullar orqali berib o'tiladi. Ulardan misol qilib, omonimik iyerogliflarni 反切 "Fan qie" usuli bilan transkripsiya qilish, shuningdek fonetik alfavit harflari orqali hamda 注音字母 Zhuyin zimu alfaviti yordamida talaffuz qilish usuli mavjud. Shuningdek, iyerogliflar ma'nosi va mohiyati ular bildirib keladigan tushunchalar izohi orqali aniqlanadi. Ba'zida sinonim yoki antonimlar yordamida tushuntirib

o'tiladi. Masalan 负,背 bilan 负 bir xil ma'no ifodalaydi<sup>9</sup>. Masalan: 浮 : 漂 , 沉 bilan qarama - qarshi ma'noga ega. Alohida iyerogliflar orqali ifodalanadigan morfemalar murakkab so'zlar misolida izoh berib o'tiladi. So'zlarning ma'nosini ifodalashga kelsak, ularni so'z birikmalari va qisqa iboralar orqali aks ettiriladi. Bundan tashqari shuni ta'kidlab o'tish joizki, izohli lug'atlar so'zlarning funksional - uslubiy xususiyatlari aks etgan ko'rsatmalar (so'zning qaysi uslubga tegishliligi, uning o'g'zaki yoki adabiy - kitobiy uslubga tegishliligi, terminologiya yoki dialektik leksikaga oidligi) ham mavjud. Xitoy tili bilan bog'lagan holda xitoy tilining leksikografik amaliyotiga asoslanib, izohli lug'atlarning ikki toifaga oid turlarini ko'rsatib o'tish lozim. Ular iyerogliflar va so'zlar (ya'ni, leksikonlar) lug'atidir.

**Iyerogliflar lug'ati (字典)** o'zida iyerogliflarni tashkil etuvchi belgilarning birikishini mujassamlashtiradi. Bu turdagi lug'atlar uzoq vaqt davomida kalit sistemasiga asoslangan. XX asrda o'zida ham grafik, ham fonetik sistemani aks ettirgan lug'atlar paydo bo'ldi. Bu lug'atlarning asosiy maqsadi alohida iyerogliflarning ma'nosini izohlashdan iboratdir. Ba'zida bu turdagi lug'atlarda alohida so'zlar izohi ham berib o'tiladi. Bunga misol qilib **新华字典 Xinhua zidianni** keltirib o'tishimiz mumkin. Iyerogliflar lug'ati (ham qadimiy, ham zamonaviy) o'z zamonasiga xos va mos ravishda iyeroglif belgilarining yozilishi va talaffuzi ko'rsatiladi. O'z navbatida lug'atlarda orfografiya va orfoepiya bo'yicha ma'lumot berilib o'tilishini ham ta'kidlab o'tish lozim.

**So'zlar lug'ati (词典, shuningdek, leksikonlar)** o'zida xitoy tilidagi so'zlar majmuini aks ettiradi. Leksikonlarning asosiy mohiyati iyeroglif mazmunini ochib berishdir. Leksikonlar o'z davriga mos so'zlar haqida ma'lumot berib o'tadi. Xitoy tili leksikonlari so'zlar semantikasi bilan birga ayrim frazeologizm va asosiy iyerogliflarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

---

<sup>9</sup> Вестник Челябинского Государственного Университета. 2011 г. №21

Xitoy tili lug'atlari bu shartlarga to'la javob bera oladi: Xitoyda ilk lug'atlar eramizdan avvalgi III asrga oiddir. Masalan, eng qadimgi **尔雅 ErYa lug'ati** "siz, sizning, to'g'ri" deb tarjima qilinadi. Xitoy filologi Lyu Ye Suyning fikricha, lug'atning bosh maqsadi Xan sulolasi davri (eramizdan avvalgi 206 - eramizning 220 yili) da yozilgan matnlarga izoh berishdir. **尔雅 ErYa lug'ati** bizgacha yetib kelgan izohli lug'atlarning eng qadimiysi, shuningdek, xitoy ensiklopediyasi deb ham e'tirof etiladi. Eramizdan avvalgi III - II asrlarda qadimgi Xitoy olimlarining jamoaviy mehnati bilan paydo bo'lgan. Boshqa variantlarda bu lug'atlarning muallifi sifatida Konfutsiy yoki Chjou Gun e'tirof etiladi.

Chin sulolasi davrida lug'at yo'q qilingan, Han sulolasi davrida qayta tiklangan. Konfutsiylikning "O'n uchtalik kitob"i orasidan o'rin egallagan. Xitoy iyerogliflarini izohlashdan tashqari orfografiya va grammatika bo'yicha ma'lumotlar, ensiklopedik ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan. 19 **篇 pian** lardan iborat. **篇 pian** – Xitoyda matn hajmini belgilab beruvchi o'lchov birligi. Berxard Karlgenning fikricha, glosslarning aksariyat qismi (Glossa ( yunoncha — til, nutq) yoki so'zning tepasida, yoki so'zning yon qatorida yoziladigan chet tili va tekstdagi notanish so'zning izohidir. Glossa so'zidan "glossariy" so'zi (III asrga oid, lug'atda keltirilgan glosslar majmui)dan kelib chiqqan<sup>10</sup>.

Leksikani tushuntirish “**释诂**” ( qadimgi matnlarda uchraydigan iyeroglifning ma'nosini izohlash):

1. “**释言**” So'zlar tushuntirish (qadimgi matnlarda uchraydigan fe'l va sifatlarni izohlash)
2. “**释言**” Glosslarni tushuntirish (so'z birikmalari va turg'un so'zlar izohi)

---

<sup>10</sup> "Китайские словари через тысячелетия вступают в век информационных технологий" Ким В.С "Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi - 2011

3. “释训” Uy-joy tushunchalari (binolar va ularning elementlari)
4. “释亲” Kundalik - maishiy mahsulotlarga oid tushunchalar (idish tovoq, oziq - ovqat mahsulotlari, kiyim - kechak)
5. “释宫” Musiqa asboblariga oid tushunchalar
6. “释乐” Samoviy elementlarga oid tushunchalar (astronomik obyekt va hodisalar)
8. “释地” Hududlarga oid tushunchalar (administrativ bo'linish)
9. “释丘” Tepaliklarga oid tushunchalar (tepalik va adirlar)
10. “释山” Tog'larga oid tushunchalar
11. “释言” Suvga oid tushunchalar
12. “释水” O'tlarga oid tushunchalar
13. “释草” Daraxtlarga oid tushunchalar
14. “释虫” Hasharotlarga oid tushunchalar
15. “释鱼” Baliqlarga oid tushunchalar
16. “释鸟” Qushlarga oid tushunchalar
17. “释兽” Yovvoyi hayvonlarga oid tushunchalar
18. “释畜” Xonaki hayvonlarga oid tushunchalar

Rus olimi Yu.V.Rojdestvenskiy 尔雅 «Erya» lug'atini oddiy lug'at deb emas, balki o'z davrining mukammal lug'atlar toifasiga kiritadi. Uning fikrini xitoy olimlari, shu bilan birga ingliz tilshunosi S. Kuling ham ma'qulladi. Kuling 尔雅 «Erya» lug'atini uch tomga bo'ladi. Har tomda 19 kategoriyadan iborat

sohalarga izoh berib ketiladi. Bu kategoriyalarga: qarindoshlik, musiqa, osmon, yer, suv, o'simliklar, baliqlar, hasharotlar, daraxtlar va boshqalardir.

**尔雅** *Erya* lug'atida o'zaro uyg'unlashgan ikki iyeroglifni o'qish orqali amalga oshirilgan. Bu usulda iyerogliflani o'qish sistemasi xitoy olimi Suy Yan tomonidan kiritilgan. Boshida bu o'qish usuli **反** "fan" deb nomlangan, keyinchalik unga **切** "qie" belgisini qo'shishgan. **反切** "Fan qie" usuli bilan iyerogliflarini transkripsiya qilish qiyin bo'lmasada, vaqt o'tgani sayin bu muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi <sup>11</sup>. Asosiy muammolar iyeroglifning aytilishi va transkripsiyasining farqlanib qolgani bilan izohlanadi. Albatta, **尔雅** «*Erya*» lug'ati o'sha zamonning bor leksik boyligini o'zida mujassam etgan. Lekin vaqt o'tgan sari, xitoyliklarning so'z boyligi ham, yashash sharoiti ham o'zgarib borgan. Eski qarash va eski so'zlarni zamonaviy leksika bilan uyg'unlashtirish qiyinchilik tug'dira boshladi. Fikrimizcha, qadimda ham xitoy xalqi o'z yozuvi va uning an'alarini saqlab qolishga harakati natijasida vujudga kelgan **尔雅** «*Erya*» lug'ati o'z davrining mukammal va funksional lug'atlari toifasiga kiradi. Shu davrning o'ziga xos xususiyatlari va iyerogliflarning tuzilishi hamda asl ma'nosini

yetkazib bergan lug'atlar toifasiga kiritilgan bo'ladi. Shuningdek, **尔雅** «*Erya*» lug'ati iyerogliflarning to'g'ri talaffuz qilish sistemasi ishlab chiqilgan ilk lug'atdir. Keng ko'lamlil so'zlar dunyosi moddiy narsalar va g'oyalar dunyosi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lum tilning so'z boyligini tasvirlashda kitobxon yoki o'quvchining ko'z o'ngida so'z bilan ifoda etilgan ma'lum davrning moddiy madaniyati, iqtisodi, g'oyasi, fan va san'at sohasi namoyon bo'lishi zarur. Tushunchalarning o'zgarishi leksikada ham o'zgarishlarni taqozo etadi. Leksik tartibni o'zgartirish mavjud va yangi lug'atlarni solishtirish bilan amalga oshirilishi

---

<sup>11</sup> M.H.Mahmudxadjayev, M.A.Turatova "Xitoy tili tarixiy fonologiyasi" Toshkent - 2009

zarur. Lug'atlar tarkibiga kirgan so'zlardan lug'atning aktual va funksionalligini aniqlash mumkin. Mualliflar har doim maxsus terminlar, turli neologizmlar (yangi so'z, shu bilan birga yangi ma'noga ega bo'lgan eski so'zlar) ning paydo bo'lishi ona tili leksikasining doimiy ravishda yangilanib turishini yodda saqlashi lozim.

Xitoy lug'atlari tarixida **说文解字 "Shuo wen jiezi"** lug'ati (eramizdan avvagi 121 yilda tuzilgan) bu shartlarga javob bera olgan. **说文解字 "Shuo wen jiezi"** (iyerogliflarni izohlash va eski iyerogliflarni sharhlash) lug'atining muallifi Sharqiy Xan (eramizning 25 - 220 yillari ) sulolasining mashhur olimi Suy Shen (eramizdan avvalgi 121 - yilda lug'atni uning o'g'li Suy Chin tugatgan) dir.

Xitoy leksikografiyasi tarixida ilk bor lug'atda so'zlar ma'nosiga qarab emas, balki belgining shakliga qarab tuzildi. Iyerogliflar "kalitlar"ga qarab ajratildi. Suy Shen ularni **部"bu"** deb atadi. Bu tizim esa **部首检字法"Bu shou jian zi fa"** deb nomlandi. **说文解字 "Shuo wen jiezi"** lug'atida darajalarga ajratilgan 540 ta asosiy kategoriya iyerogliflari bor edi. Kalitli sistemaga ega lug'atlardan iyeroglifni o'qilishi va ma'nosini bilmasdan turib ham topish mumkin bo'lgan. Suy Shen ilk bor iyerogliflarni 6 kategoriyaga ajratgan:

1. **象形字 Xiang xingzi**. Tasviriy piktogramma. Belgi rasmlar - eng qadimgi iyerogliflar sanaladi. Masalan: oy 月 "yue" va kun 日 "ri"ning uyg'unligi "ming" ya'ni, "yorug'" ma'nosini beradi.

2. **指事字 Zhishizi**. Yo'naltiruvchi iyerogliflar narsa hodisani ko'rsatmaydi, balki uni izohlaydi. Masalan: 上 "shang", 下 "xia".

3. **转住字 Zhuanzhuzi**. Ko'rinishi o'zgargan bu iyerogliflar turkumi mavjud iyerogliflarning ko'rinishini o'zgartirish orqali unga yangi ma'no

berishi bilan paydo bo'ladi. Masalan: 老 "lao" (qari, hurmatli) iyeroglifning pastki qismi o'zgarganda 考 "kao" (imtihon, sinov) iyeroglifi kelib chiqadi.

4. 假借字 **Jiajiezi**. Bir xil o'qiladigan iyerogliflar turkumi bo'lib, ularni kontekst (tekstning to'la ma'noni anglatuvchi bir butun qismi)ga qarab ajratish mumkin bo'ladi.

5. 会意字 **Huiyizi**. Oddiy iyerogliflardan tashkil topgan murakkab iyerogliflar turkumi. Murakkab iyeroglif tarkibidagi har bir oddiy iyeroglif o'z ma'nosini saqlab qoladi. Masalan: 休 "xiu" (dam olmoq) iyeroglifi 人 "ren" odam va 木 "mu" (daraxt) iyerogliflaridan iborat. Bunda daraxtga suyanib turgan odam ko'rinishini aks ettiradi.

6. 形声字 **Xingshengzi**. Tasviriy - fonetik turkum bo'lib, murakkab iyeroglifning bir qismi ma'nosini, ikkinchi qismi o'qilishini izohlab keladi. Masalan: 铜 "tong" (mis) iyeroglifi 金 "jin" (metall) va 同 "tong" fonetik kalitlaridan iborat<sup>12</sup>.

Suy Shen kiritgan bu tizim hozirgi iyerogliflar, terminlar, neologizmlarning paydo bo'lishiga ham asos bo'lib xizmat qildi. Hozirgi zamonaviy iyerogliflarning aksariyat qismi tasviriy-fonetik kategoriyaga xosdir. Yangi iyerogliflar ham shu kategoriyalarga xos bo'lgan. Lekin Suy Shen tuzgan lug'atda iyerogliflarni o'qish tizimi mukammal ishlab chiqilmagan. 说文解字 "*Shuo wen jiezi*" lug'atida iyerogliflarni o'qish Duruo va Zhiyin usullari orqali amalga oshirilgan. Iyeroglif o'qishning ushbu usullari iyeroglifni aniq talaffuz qilish imkoniyatini bermasdi. 说文解字 "*Shuo wen jiezi*" tuzilish davri Xitoy hududida kichik shohliklarga bo'linib ketgan davrga tog'ri keladi. Ularning har birida iyeroglif

---

<sup>12</sup> <http://www.wikipedia.org/Китайский язык>

o'qilishining o'z usuli mavjud edi. Bu o'z navbatida iyeroglif o'qish uchun yagona usul kerakligini bildirardi. **说文解字** "*Shuo wenjiezi*" buning asosi bo'lib xizmat qildi. Lekin Xitoyda o'ndan ortiq dialektlar mavjud bo'lganini ham inobatga olish lozim edi. Kichik shohliklar va ma'lum dialekt vakillari tomonidan bir xil tushunilsada, har xil o'qilardi. **说文解字** "*Shuo wenjiezi*" dan keyin kalit sistemaga asoslangan bir nechta lug'atlar tuzib chiqilgan.

**说文解字** "*Shuo wenjiezi*" lug'atini hozirgi zamon lug'atlaridagi kalitlar sistemasiga asoslanganligining ilk ko'rinishi desa bo'ladi. O'z davrining mashxur lug'ati hisoblangan **说文解字** "*Shuo wenjiezi*" hozirgi zamon iyerogliflari, neologizmlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit sistemaga asoslangan bir nechta lug'atlar orasida mashhurlardan biri 1761 yilda nashr qilingan **康熙字典 kangxi zidian** lug'atidir. Bu lug'at ustida 20 yil davomida 35 ta leksikograf ish olib borgan. Bu lug'at Chin sulolasi imperatori Kansining buyrug'iga asosan tuzilganligi uchun **康熙字典 kangxi zidian** deb atalgan. 4700 ta iyeroglifni o'z ichiga olgan bo'lib, hozirgi kungacha o'z kuchini yo'qotmagan lug'atlar toifasiga kiradi **康熙字典 kangxi zidianda** ilk bor "lug'at" ma'nosini ifodalovchi so'zlar kiritilgan. **康熙字典 kangxi zidian** dan keyingi lug'atlarda bu so'zlar qo'llanila boshlagan. Bu lug'at, o'z navbatida, xitoylarga xos 214 kalit emas, balki 542 ta kalitlar majmuidan iborat. **康熙字典 kangxi zidian** dan oldin 214 kalitlar tizimidan iborat, 1651 yilda xitoy olimi Mey Inzuo tomonidan tuzilgan kichkina, lekin juda qulay **字彙 Zi hui** lug'ati tuzilgan. Keyingi pog'ona lug'atlari iyeroglifni tashkil etuvchi kombinatsiyalangan grafik elementlarga asoslangan edi. Bu tizim **笔形检字法 Bixing jian zi fa** deb nomlangan. Grafik sistema 3 variantdan iborat:

1. Birinchi variantda iyerogliflar bir iyeroglifni tashkil etadigan grafik elementlar, ya'ni 笔画 lar soniga qarab aniqlanadi. Ya'ni, iyeroglifni tashkil etuvchi qaysi chiziq bosh bo'lib kelsa, iyeroglif shunga qarab klassifikatsiya qilinadi. Bunday chiziqning bizga yettitasi ma'lum bo'lib, ular 横 heng - gorizontal, 撇 - pie chap tepaga yo'nalgan, 竖 - Shu vertikal, 点 dian - nuqta; Qolgan uch chiziq turli nuqtalardir.

2. Rus xitoyshunos olimi V.I.Gorelov o'zining olib borgan ilmiy izlanishlari oqibatida lug'atlarda to'laqonli yetti 笔画 dan faqatgina to'rtta qo'llanilishini aniqladi. Bular yuqorida ta'kidlab o'tilgan 横 heng - gorizontal, 撇 - pie chap tepaga yo'nalgan, 竖 - Shu vertikal, 点 dian - nuqtalaridir. Bu grafik sistemaning ikkinchi varianti hisoblanadi<sup>13</sup>.

3. Grafik sistemaning uchinchi varianti "to'rt burchak sistemasi" deb nom olgan. Uning muallifi xitoy filologi Van Yun U hisoblanadi. Bu sistemaga oid lug'at ilk bor 1928 yilda tuzib chiqilgan. Agar boshqa lug'atlarda iyerogliflarning murakkabligiga qarab topilgan bo'lsa, bu lug'atda iyeroglif elementlari 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlarga bo'lib chiqilib, to'rtburchak hosil qilgan kombinatsion elementlar to'rttalik son bilan ifoda etilgan. To'rttalik sonning rasshifrovkasi iyeroglif ma'nosini anglatgan. Afzalliklaridan biri bu 214 ta kalitni esda tutish shart emasligi bo'lsa, uni rasshifrovkasi esa o'z navbatida qator noqulayliklarni keltirib chiqarardi. 字彙 *Zi hui* lug'ati iyeroglifni o'qish va uning ma'nosini taxlil qilishda qator noqulayliklar keltirib chiqargan bo'lsada, shunga qaramasdan o'ziga xos sistemaga ega bo'lgan. Ya'ni, iyerogliflarni yozish va o'qishda leksikografiyada yangilikka intilingan. Ushbu lug'atning tarixiy yo'li keyingi avlod lug'atlari uchun izlanishlar olib borish uchun turtki bo'lib xizmat qildi.

---

<sup>13</sup> <http://www.lib.csu.ru/vch/236/016.pdf>

**王云五大词典 "Wang yun wuda cidian" lug'ati** ham aynan shu sistema asosida tuzilgan lug'atlardandir. Bu sistemadagi lug'atlar xitoy lug'atlari uchun optimal bo'lgan variant topish yo'lida uzoq yo'l bosib o'tdi. Lekin o'rniga fonetik sistemaga asoslangan lug'atlar kirib keldi. Grafik va fonetik sistemaga asoslangan lu'g'atlar shartli ravishda uzoq muddatli rivojlanishni boshidan o'tkazdi. Fonetik sistemaga asoslangan lu'g'atlar bir necha bosqichda turli ko'rinishlarda taqdim etildi. Bu sistemaga asoslangan ilk lug'atlar XII asrga tegishli bo'lib, qofiyalarga tushirilgan va to'rtta qadimgi tonga qarab joylashgan edi. **廣韻** *Guang yun lug'ati* bizgacha yetib kelgan fonetik sistemaga asoslangan yagona lug'atdir. U eramizning 1007 yilida nashr ettirilgan. Lekin bu lug'at ham kamchiliklardan holi emasdi. Jumladan, iyeroglif lug'atning turli betida aks ettirilgan bo'lib, turlicha tonlarga ega bo'lsada, lekin ma'no jihatdan o'zgarmagan. Bu toifadagi lug'atlar xitoy tilini lug'atlashtirish va uni aniq sistemaga solish yo'lidagi eng uzoq muddatli yo'l bosib o'tgan va turli tuman o'zgarishlarga uchragan lug'atlar sistemasi deb ta'kidlab o'tish lozim.

**新华字典 Xin-hua Zi-dian** — nafaqat Xitoyda, balki boshqa mamlakatlarda ham mashxur va eng ko'p sotib olinadigan lug'atlar sirasiga kiradi. Bu lug'atda soddalashtirilgan iyerogliflar va ularning **拼音** "pinyin"lari asosida tuzilgan. 2004 yilda chop ettirilgan ushbu lug'atning o'ninchi soni o'z ichiga 11200ga yaqin an'anaviy iyerogliflar va ularning variantlarini oladi. Unda iyerogliflarning fonetik transkripsiyasining ko'rsatkichlari, kalitlar ko'rsatkichi, chiziqlar soniga (**笔画**) qarab, to'rt burchak sistemasiga asoslangan ko'rsatkichlar bor. Ilova sifatida quyidagilar keltirilgan:

- Fonetik transkripsiyalar jadvali;
- Tinish belgilari jadvali;
- Xitoy sulolalari boshqargan davrlar jadvali;

- Xitoyda yashovchi millatlar va ularning asosiy yashash joylari jadvali;
- Xitoyning administrativ – hududiy joylashuvi va ularning markazlari jadvali;
- Dunyo mamlakatlarining hududiy hajmi, aholisi soni va poytaxtlari jadvali;
- Geologik davrlar jadvali;
- Xitoyning qishloq xo'jalik taqvimi (Mavsum boshlanishi kunlari va ularning nomlanishi);
- D.I Mendeleevning davriy sistemasi.

**新华字典 *Xin-hua Zi-dian*** ilk marta 1953 yilda Xalq ta'limi bosmaxonasida Xitoyning ijtimoiy fanlar Akademiyasi nashriyoti ostida chop etilgan. Bosh redaktor xitoy lingvisti va leksikologi Vey Jia Gun (Wei Jiangong (1901—1980) edi. 1957 yilda tijorat nashriyoti **新华字典 *Xin hua Zi dian*** lug'atining pinyin alfavitli tartibiga asoslangan iyerogliflar lug'atini bosib chiqardi. U bir necha bor qayta nashr etilgan va xitoylik talabalar orasida ma'lum mashxurlikka erishgan. 2004 yil boshida **新华字典 *Xin hua Zi dian*** lug'atining bosib chiqarilgan nusxalar soni 400 millionga yetib bordi. Bu o'z navbatida ushbu lug'atning dunyo bo'yicha katta talabga egaligidan dalolatdir. Shansi provinsiyasi ta'lim nashriyoti bu lug'atning o'z versiyasini nashr ettirdi. Qisqa lug'atdan tashqari Tijorat bosmaxonasida **新华字典 *Xin hua Zi dian*** ning to'liq shakli va ingliz tiliga tarjima qilingan varianti chop etildi. Endilikda biz hozirda foydalanayotgan lug'atlarning ilk nashri haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Bundan xulosa qilib aytganda, to hozirgi kungacha mavjud lug'atlar endilikda chet elliklarga o'rganishiga mos ravishda "pinyin" sistemasiga asoslanib tuzila boshlandi.

**Katta xitoy iyerogliflari lug'ati** (汉语大字典, qisqartirilgan ko'rinishi, *Hanyu Da Zi dian*) — eng katta iyerogliflar lug'ati. 54 678 iyeroglifni o'z ichiga olgan. 1979 yildan boshlab 400 ta muharrir mehnati bilan tuzib chiqilgan. Xitoyda

1986 - 1989 yillar oralig'ida 8 tomda chop etilgan. Alohida tomda mualliflar to'qnash kelgan leksikografik qiyinchiliklar aks ettirilgan. 5790 betdan iborat birinchi nashrdan keyin qo'shimcha bosib chiqarilgan 3 tom (1995) va kichik hajmdagi lug'at nashrdan chiqqan.

Vaqt o'tib, fonetik lug'atlarni tashkil etuvchi sistemasi iyerogliflarni o'qish uchun **拼音字母 pinyin zimu** alfaviti tuzilishi bilan o'zgarishlarga uchradi. Xitoyda ilk bor 1918 yilda xitoy yozuvini alfavitlashtirish masalasi ko'rib chiqilganda iyerogliflar biron bir chiziq ko'rinishida bo'lgan. Bu alfavitda 39 ta belgi bo'lib, o'z navbatida bu alfavit iyerogliflar o'qilishini ancha yengillashtirdi. Biroz vaqt o'tib bu alfavitning o'rnini lotin harflariga asoslangan **拼音字母 pinyin zimu** alfaviti egalladi. Fonetik lug'atlarning yangi avlodi paydo bo'ldi. Endilikda xitoy lug'atlarini transkripsiyasi lotin alifbosiga asoslanardi. Bu o'z navbatida xitoy tilini o'rganuvchi chet elliklar uchun qator qulayliklar yaratdi. **拼音字母 Pinyin zimu** alfavitiga asoslangan lug'atlarning yana bir afzallik tomoni, ularning xitoyliklarning aksariyat qismiga tushunarli bo'lgan Pekin dialektiga asoslanganligida bo'ldi. Pinyin leksikografik faoliyatlarning ichiga kirib bordi va to hozirgi kungacha keng ommalashib bormoqda. Xitoyga chet el sarmoyasining kirib borishi va Den Syao Pining olib borgan "ochiq eshiklar siyosati" Pinyinning keng ommalashib borishiga olib keldi. Boshqa alfavitlarga nisbatan **拼音字母 Pinyin zimu** alfaviti asosida yotgan *Pinyin* lar xitoy tovushlarini deyarli maksimal darajada aniq yetkazib beradi va oson o'zlashtiriladi. Aslida bu sistema XVIII asr missioner xristianlari tomonidan taklif etilgan edi. Lekin o'sha davrda alfavitlar tovushlarni aniq yetkazilishini ta'minlamagani uchun xitoyliklar tomonidan iliq qabul qilinmagan. **拼音字母 Pinyin zimu** alfavitida o'sha davr alfavitida mavjud bo'lmagan, xitoy iyerogliflarining transkripsiyasini aks ettiradigan qo'shimcha harflar mavjud bo'lib, ular o'z navbatida xitoy iyerogliflarining maksimal to'g'ri

talaffuz etilishini ta'minlab beradi. Keyinchalik bu sistemaga ingliz lingvistlari Djaylz va Uyeldlarning transkripsion sistemasini kiritish muvaffaqiyatsiz kechdi. Rossiyada umumiy etib qabul qilingan xitoy tiliga tegishli "Palladiya traskripsiyasi" XX asrning to 70 yillarigacha o'quv qo'llanmalari, xitoy tilida darsliklar, "xitoy - rus va rus - xitoy lug'atlari"ni tuzishda keng qo'llanilgan.

N. Ya. Bichurin, V. P. Vasilyev, O.O. Rozenberg, V.M. Alekseev, A.A. Dragunov, N.S Kolokolov, I.M Oshanin va boshqa rus lingvist olimlari xitoy tilining lotin alifbosini tuzishda o'zlarining katta xissalarini qo'shishdi. Shu tariqa xitoy leksikografiyasida rus va chet ellik boshqa lingvist olimlarning umumiy xissalari bilan yangi va shu bilan birga qulay qo'shimcha lug'at yaratildi. Ushbu lug'at iyerogliflarni topishda optimal darajada soddalashtirilgan tizimga ega bo'lib, iyerogliflarning o'qilishi tushunarligi, materiallarning qulay joylashuvi bilan ahamiyatli xususiyatga ega. XX asrning 90 yillaridan keyingi davrda tuzilgan lug'atlar fonetik sistemaga asoslangan bo'lib, qo'shimcha sifatidagi kalitlar orqali iyeroglif topish tizimini o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, fonetik sistemaga asoslangan va kalitlar orqali topish tizimi xitoy xalqining moddiy va ma'naviy qadriyatlari hamda xitoy xalqining bor bilim va malakalarini ifodalovchi lug'atlarning to'liq fonetik sistemaga o'tishigacha xizmat qilib boradi.

**成语词典 chengyu cidian** - xitoy tilining frazeologizmlar to'plami, ya'ni doimiy ishlatiladigan so'z birikmalaridan iborat lug'atdir. Chengyu (iboralar) tuzilishi jihatidan to'rtso'zlikdan iborat. Ko'pincha "idioma" (turg'un birikma) deb tarjima qilinadi. Xitoyda chengyularga oid ko'p lug'atlar nashr etilganligi sababli, bu filologlar e'tiborini tortadi. Hajm jihatdan kichkina yoki katta bo'ladi. To'liq yoki qisman chengyular haqida ma'lumot beriladi. Lug'atlarda chengyularning kelib chiqishi haqida aniq va to'liq berilib o'tiladi. Ko'rgazmali material sifatida adabiy asarlardan misollar keltiriladi.

**汉语成语小词典 lug'ati**

«Xitoy tilida chengyularning qisqa lug'ati» ilk bor 1958 yilda nashr etilgan. Ma'lumotlar xitoy alfaviti asosida tuzib chiqilgan. Chengyularning etimologik xarakteri va qismlarga bo'lish orqali izohlab o'tiladi. Kerakli joylarda qiyin iyeroglif va so'zlarning izohi keltirib o'tiladi. 3013 ta maqoladan iborat bo'lib, ayrimlari ko'rgazmali ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

### **把用中文词典«Bayong zhongwen chengyu cidian»**

1966 yilda Gonkongda nashr etilgan bo'lib, keyinchalik qaytadan nashr etilgan. 3000 ga yaqin muomaladagi chengyularni o'z ichiga oladi. Frazeologik jihatidan chengyuning ilk iyeroglifi tashkil topgan kalitlar soniga qarab joylashgan. Lug'at chengyuning to'liq xarakteristikasini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar sakkiz qismga bo'lingan:

1. Cheng yu — sinonimik munosabatni ifodalovchi;
2. Cheng yu — antonim munosabatni ifodalovchi;;
3. Kam uchraydigan iyeroglif belgilarini o'qish;
4. Murakkab so'zlar izohi;
5. Mohiyatini izohlash;
6. Chengyuning kelib chiqishi;
7. Qo'llanilishini izohlash;
8. Qo'llanilishiga misol.

Ushbu lug'at katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, xitoy tilida frazeologizmlarni o'rganish jarayonida qimmatbaho qo'llanma sifatida foydalaniladi<sup>14</sup>.

### **成语大词典«Chengyularning katta lug'ati»**

---

<sup>14</sup> Вестник Челябинского Государственного Университета. 2011 г. №21

1973 yilda Gonkongda nashr etilgan bo'lib, **把用中文词典** «Bayong zhongwen chengyu cidian»dan keyin nashrdan chiqqan bo'lsada, xitoy frazeologiyasi bo'yicha boy ma'lumotlar omboriga (800 ta frazeologik birliklar) ega bo'lgani uchun ham xitoy tili turg'un iboralarini majmuining eng to'liq ko'rinishidir.

Aytib o'tish joizki, xitoy tilini o'rganuvchi har bir chet ellik talaba bevosita shu tilning frazeologizmlari va iboralarini o'rganishi zarur. Gap tuzish va muloqot jarayonida iboralar, frazeologizmlardan foydalanish til zahirasini boyitish, ularni joyida va vaqtida qo'llay olishga yordam beradi.

### **Boshqa lug'atlar**

**汉字正字小字汇** "**Han zi zheng zi xiao zi hui**" lug'ati hajm jihatidan uncha katta bo'lmagan orfografik lug'atdir. Lug'at 1966 yilda nashr etilgan bo'lib, 4000 ga yaqin iyerogliflarni o'z ichiga oladi. Iyerogliflarni tog'ri yozilish qoidalaridan tashqari yana iyerogliflarning xitoy alfavitidan foydalangan holda to'g'ri talaffuzi ham keltirib o'tiladi. Shuning uchun ham bu lug'at xitoy tilida orfoepiyasi bo'yicha qo'llanma sifatida ham foydalanilishi mumkin. Lug'atda iyeroglifning qisqa ko'rinishidan tashqari qavs ichida shu iyeroglifning to'liq yoki qadimiy ko'rinishi ham yozib ko'rsatiladi. Ushbu lug'atning yana bir xususiyati shundaki, unda ma'lum iyeroglifni to'g'ri yozilishi ketma-ketligi, shuningdek, iyeroglifni tashkil etuvchi chiziqlarning umumiy soni ham keltirilgan.

**汉语拼音词典** "**Han yu pinyin ci dian**" lug'ati 1963 yilda nashr etilgan bo'lib, umumiy soni 59100 dan oshadigan so'z birliklari, ya'ni, so'zlar, frazeologizmlar, iboralarni o'z ichiga oladi. Lug'atning asosiy maqsadi - so'z va frazeologizmlarni xitoy tili alfaviti asosida yozilish shaklini belgilab berishdan iborat bo'lib, uni ham orfografik, ham orfoepik lug'at sifatida ko'rishimiz mumkin.

Bunga sabab, iyerogliflarning talaffuzi xitoy tilida qabul qilingan standart putunhua shaklida ekanligidir.

«Omonimlar Iug'ati» 同音词典 1955 yilda nashr etilgan bo'lib, leksikografik material 10000 iyeroglif va 30000 so'zdan tashkil topadi. Omonimik iyerogliflar bir guruhga birlashtirilgan. Alohida iyerogliflarning talaffuzi putunhuada qabul qilingan orfoepik normalar asosida ko'rsatilgan 注音字母 Zhuyin zimu va xitoy fonetik alfaviti yordamida o'qiladi. Iyerogliflarning ma'nosi sodda og'zaki til orqali tushuntiriladi.

### **Kompleks lug'atlar**

Kompleks lug'atlar o'zida nafaqat til materiallari, balki juda hatta hajmdagi ensiklopedik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu lug'atlar tushunchalar lug'ati sifatida ham faoliyat olib borishi mumkin. Chunki ular so'zlarni emas, balki ular aks ettiradigan real hayotda sodir bo'ladigan hodisalar, predmetlarni tushuntirib o'tadi. Umuman kompleks lug'atlar o'zida ham izohli, ham ensiklopedik lug'at xususiyatlarini birlashtirgan.

辞源 «Ciyuan» lug'ati ilk bor 1915 yilda nashrdan chiqqan bo'lib, 10000 dan oshiq alohida iyeroglif va 100000 ga yaqin so'z va frazeologizmlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu lug'at tarkibiga katta hajmdagi ensiklopedik ma'lumotlarni mujassamlashtirgan. Lug'atga kiritilgan hamma iyerogliflar kalit tizimiga asoslangan. Lug'at matni iyerogliflar ketma - ketligi asosida, talaffuzi esa 反切 orqali amalga oshirilib, so'ngra iyeroglif ma'nosi va mohiyati beriladi. So'ngra shu iyerogliflarda bosh morfemani tashkil etuvchi murakkab so'zlar taxlil qilinadi. So'z birliklari ko'rgazmali material va adabiy asarlardan misollar bilan to'ldirib borilgan. Kamchilik tomoni shundaki, izohlanilayotgan so'zlarning ishlatilishi,

tilning boshqa so'zlari bilan semantik - sintaksis bog'liqligiga ahamiyat berilmay o'tilgan. Bundan tashqari so'zlar taxlili qadimiy yozma Venyan tilida yozilgan bo'lib, bu o'z navbatida nafaqat chet elliklarga, balki o'rta ma'lumotga ega bo'lmagan xitoyliklarning tushunishi uchun ham qiyinchilik tug'dirgan.

**辞海**«**Cihai**» lug'ati ham o'zida nafaqat til materiallari, balki ensiklopedik xarakterga ega katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. 1936 yilda nashr etilgan. Leksik materialni o'zida qamrab oladi. To'liq izohlangan 100 000 dan ortiq so'z va iboralarni o'z ichiga olgan. **辞源** «**Ciyuan**» lug'atiga o'xshagan tuzilish va matn jihatidan o'xshash tuzilgan. Bu toifa lug'atlarining umumiy kamchiliklari shundaki, zamonaviy xitoy tilida mavjud so'z va iboralarning yo'qligidadir.

Hozirgi kunda Xitoyga bo'lgan qiziqish natijasida Xitoy hukumati tomonidan xitoy tilini ommaviy texnologiyalar bilan hamnafas holda tadbiq etish siyosatini olib bormoqda. Bunda Xitoy o'zining sport, iqtisod, madaniyat, san'at, milliy tabobatida erishgan yutuqlari bilan keng ommani habardor qilib bormoqda. Xitoyning bu siyosatida butun dunyo bo'ylab ochilayotgan Konyutsiy til markazlari bo'lib, bu institutlarning asosiy maqsadi nafaqat chet elliklarga xitoy tilini o'rgatish, balki xitoy tarixi va adabiyoti, xitoy iqtisodiy modeli, xitoy madaniyatini kengroq o'rgatishdan iborat. Hozirgi kunda xitoy lug'atlari yangi mingyillikka kirib bordi. Shu o'rinda xitoy tili lug'atlari jadal globallashuv jarayoni natijasida kompyuter texnologiyalariga asosan o'zgarib bormoqda. Ya'ni, endilikda lug'atlar qog'ozlarda emas, balki "online", elektron ko'rinishida ommaga havola etildi. Xitoy lug'atlari doimiy tarzda zamon va makon bilan bevosita o'zgarib va kengayib borgan. Hozirgi kunga kelib, I-Phone, I-Pad, Smartfonlar va boshqa Android sistemaga oid kompyuter texnologiyalari aynan xitoy iyerogliflarini o'qish va sezgir stiluslar orqali iyerogliflarni kiritish imkonini bermoqda. Bunda klaviaturada iyeroglifning " Pinyin" kiritilishi orqali o'qilishi bir xil iyerogliflar orasidan kerakligi tanlab olinadi. Bundan tashqari zamonaviy xitoy lug'atlarida iyeroglif tanlangan paytiyoq kompyuter ekranida aynan shu iyeroglif qatnashgan yoki uning qo'shilishi orqali tuziladigan turli ibora va so'z birikmalari ham pay do

bo'ladi. Bu o'z navbatida xitoy tilini o'rganuvchi chet ellik o'quvchi va talabalarga shu iyeroglifning ma'nosini eslab qolish va uni to'g'ri qo'llash imkonini yaratib beradi. Shuningdek, hozirda elektron lug'atlar iyerogliflarni talaffuz qilishda yordamchi sifatida iyeroglifni talaffuz etish funksiyasi ham joriy etildi<sup>15</sup>. Bunda biz iyeroglifni toni bilan aniq tinglash va uni to'g'ri talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ayrim lug'atlar va elektron uskunalar iyeroglifning qoidaga asosan to'g'ri yozilishini ko'rsatib beradigan dasturni ham o'z ichiga oladi. Shu tariqa, hozirgi kunda ommalashib borayotgan zamonaviy elektron lug'atlari xitoy tilini o'rganuvchilar uchun tez va samarali o'qitish jarayonini yaratish bilan birga boshqa bir qator qulayliklar yaratib berishi bilan ajralib tursada, xitoy tilidan asosiy bilim, malaka va ko'nikmalar shubhasiz qog'ozga tushirilgan lug'at va darsliklar orqali egallanishi mumkin bo'ladi.

## **2. Xitoy lug'atlarining qisqacha izohi**

“Katta xitoy tili lug‘ati” (《汉语大字典》)

Ushbu lug‘at 8 tomdan iborat bo‘lib Syu Chjunshu muharrirligi ostida Sichuan provinsiyasi ma’lumotnoma adabiyot nashriyoti hamda Xubey provintsiyasi ma’lumotnoma adabiyot nashriyoti hamkorligida nashr etilgan. 1993 yil fototip nashri chop etilgan. Lug‘at o‘z ichiga 56000 iyeroglifni qamragan bo‘lib, ushbu lug‘atda iyerogliflarga izoh berilib, ularning semantik va fonetik determinantlari ko‘rsatiladi.

“Sinhua lug‘ati” (《新华词典》)

---

<sup>15</sup> <http://www.lib.csu.ru/vch/236/016.pdf>

Shan'u nashriyotida chop etilgan bo'lib, 1998 yilda uning yangi tahriri nashr etilgan. Lug'at tarkibiga 11100 iyeroglif jamlangan. Bu Xitoyda eng nomi chiqqan lug'atdir.

“Zamonaviy xitoy tili lug'ati” (《现代汉语词典》).

Xitoy Xalq Respublikasining ijtimoiy Fan akademiyasi Lingvistika instituti tomonidan tuzilgan. 1996 yil Shan'u nashriyoti uning yangi nashrini chop etgan. Lug'atda tahminan 60000 ta maqola mavjud. Ushbu lug'at amaliy qiymatga ega bo'lib, unda putunhua leksikasi qayd qilingan.

“Katta xitoy tili lug'ati” (《汉语大词典》)

Katta xitoy tili lug'ati nashriyoti tomonidan chop etilgan. 1992 yilda uning oxirgi 12 tomi nashrdan chiqqan. Uning bosh muharriri Lo Chjufen. Bu qadimgi va zamonaviy xitoy tilining eng katta lug'atidir. U o'z ichiga 375000 ta lug'at maqolalarni jamlagan.

“Xitoy tilining eng ko'p qo'llaniladigan 8000 so'zi lug'ati”

Bosh muharriri - Lyuy Shusyan. 1999 - yilda Shan'u nashriyoti uni qayta tahrirlangan nashrini chop etgan. Lug'at tarkibida 1000 ga yaqin lug'at maqolalari jamlangan. Yordamchi so'zlar unda o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Katta bit tomlik izohli va ikki tilli lug'atlar o'z ichiga odatda 6000—8000 iyerogliflarni jamlaydi. Bu hajm orasida allaqachon muomaladan chiqib ketgan yoki kam qo'llaniladigan iyerogliflar kam emas, masalan, qadimda o'tkazilgan marosim vositalari yoki an'anaviy xitoy tabobatida qo'llaniladigan o'simlik va dori nomlari o'z ifodasini topgan.

1994 yilda nashr etilgan iyerogliflar lug'ati "Zhonghua zihai" (中華字海) o'zida 87 019 iyeroglifni qamrab olgan.

Ilk bor mavjud barcha lug'atlarning soni Xan sulolasi davrida xitoy olimi Suy Shen tomonidan sanab chiqilgan bo'lib, uning barcha mehnati 说文解字 Shuo wen jie zi lug'atida o'z aksini topgan va 9353 iyeroglifni o'z ichiga olgan.

Keyinchalik, janubiy sulolalar davrida ( 519—581) 16971 iyeroglifni qamrab olgan 顾野王 Gu Yevan «Yubian» (玉篇) lug'atini tuzgan, u o'zida 16 917 iyeroglifni qamrab olgan. Uning qayta ishlanganidan so'ng yangi Da guan yi huay yu bian «大广益会玉篇» lug'ati paydo bo'ldi, ayrim manbalarga asoslanib ta'kidlash mumkinki, u o'zida 22 726 iyeroglifni qamrab olgan. Sun sulolasi davrida olimlar guruhi tomonidan «Leibian» (类编) lug'ati tuzilgan bo'lib, 31 319 iyeroglifni qamrab oladi. Boshqa guruh olimlar tomonidan «Ji yu» (集韵) kitobi tuzib chiqiladi, u o'zida 53 525 iyeroglifni mujassamlashtirgan. Bu lug'at o'sha zamon lug'atlarining orasida eng ko'p iyeroglif tashkil etuvchi lug'ati hisoblanadi.

Zamonaviy iyerogliflar lug'atlari o'zida ham hozirgi kunda ishlatiladigan iyerogliflarni, ham adabiyotda qo'llaniladigan eski iyerogliflarni mujassamlashtirishga intiladi. Masalan, Kansi cidian (康熙字典), Sin sulolasi davrida tuzilgan bo'lib, o'zida 47 035 iyeroglifni mujassamlashtirgan. Kalla xitoy-yapon lug'ati (大汉和字典) 48 902 iyeroglifni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari 1062 iyeroglif ilovalarda keltirib o'tiladi. Tayvanda chop etilgan zhongwen da zi dian (中文大字典) 49 905 iyeroglifdan iborat. Xitoycha Hanyu da zi dian (汉语大字典) 54 678 iyeroglifdan iborat. Zamonamizning yangi lug'atlaridan biri ( 仲华字海) 85 568 iyeroglifdan iborat va ikki lug'atdan tashkil topadi: 汉语大字典 Hanyu da zi dian hamda 中文大字典 zhongwen da zi dian, Kansi cidian (康熙字典), shuningdek, 说文解字 Shuo wen jie zi lug'ati. Yaponiyada "Riben jinze wen zi jin" (日本今昔文字鏡) hozirgi kunda eng ko'p iyerogliflar sonini jamlagan — iyerogliflar soni 150 mingtani tashkil etadi.

**Shunday qilib, qadimdan boshlab tuzilgan lug'atlar shajarasi taxminan  
quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:**

1. 尔雅 «Erya» «Klassikaga yaqinlashish» (eramizdan avvalgi III - II asr)

2. 方言 fang yan «Mahalliy so'zlar» (dialektlar leksikasiga oid birinchi lug'at). G'arbiy Han (西漢) (eramizdan avvalgi 206 - 9 yillar), taxmin qilingan muallif—Yan Sun (eramizdan avvalgi 53 - eramizning 18 yillari). 9000 iyeroglifni o'z ichiga olgan.
3. 说文解字 "Shuowenjiezi".

### **Xitoy iyeroglifik lug'atlari:**

1. 康熙字典 kangxi zidian (1716 yil. 47021 ta iyeroglif)
2. 新华字典 Xin hua zi dian (1953 yildan boshlab nashr etib kelinmoqda, 2004 yilda o'ninchi nusxasi nashr qilindi)
3. 中华大字典 Zhong hua da zidian
4. 汉语大字典 Han yu da zidian (1986-1989 yillar, 54678 ta iyeroglifni o'zichiga oladi)
5. 成语词典 chengyu cidian.

### **Revolyutsiyadan oldingi ruscha - xitoycha lug'atlar**

1. Ruscha - xitoycha lug'at. Muallifi P. Popov. Pekin, 1888 yil. (iyerogliflar soni 11686)
2. Ruscha - xitoycha lug'at. Muallifi P. Popov, (birinchi nashr 1888 yil; ikkinchi to'ldirilgan varianti 1896 yil; uchinchi varianti 1900 yilda nashr ettirilgan) Lingvist Jayls va P.S Popov lug'atlari asosida tuzilgan umumiy xitoycha ruscha lug'at. Yepiskop Innokentiy muharrirligi ostida nashr etilgan, 2 tomdan iborat. Pekin, 1909 yil (iyerogliflar soni 16845) .

### **Sovet davriga oid**

Katta xitoycha - ruscha lug'at (maket shakli). 1960 yil. 4 tomlik rus grafik tizimiga asoslangan katta xitoycha - ruscha lug'at. 250.000 ga yaqin so'z va iboralardan tashkil topgan. Professor I.M Oshanin boshqaruvi va nashriyoti ostida xitoylik kollektiv tomonidan tuzilgan. «HAYKA» nashriyoti, Sharq adabiyoti bo'yicha bosh nashriyot, Moskva 1983—1984 yillar (iyerogliflar soni 15.700 atrofida). SSSRning qulashidan so'ng katta hajmga ega bo'lmagan lug'atlar nashr etilgan.

### **Yaponiya**

Te Zuzi muallifligida tuzilgan Katta xitoycha - yaponcha lug'at, to'liq nomi — **大汉辞典和** yaponchada xitoy iyerogliflarining eng katta' lug'at, 1925 yildan to 1960 yillar oralig'ida Te Zuzi boshchiligida tuzilgan. Lug'at 50000 dan oshiq alohida iyerogliflar va bu iyerogliflardan tuzilgan murakkab so'zlardan tashkil topgan. Bir qancha qidirish indekslariga ega. 13 tomidan iborat: 12 asosiy va 1 ta indeksli torn. "Taysukan" nashriyoti tomonidan to'rt marta qayta nashr etilgan. Tokio, 1955—1960 yillar.

## XULOSA

Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, Xitoy tilining o'ziga xos, juda qadimiy yozuvi, buyuk va katta ahamiyatga ega tarixi doiraiy ravishda qiziqish uyg'otib kelgan. Xitoy nafaqat qadimiy madaniyatlar beshigi, balki buyuk kashfiyotlar mamlakati ham sanaladi. Xitoy leksikografik tarixining boshidanoq mukammal urf-odat va an'analarining hozirgacha saqlanib qolganligi, jamiyat, zamon, vaqt, davr, turmush hayotga mos qilib doimiy isloh qilib borilishi, qadimdan lug'atshunos olimlarning xitoy tili lug'atshunosligida olib borgan izlanishlari hozirgi zamonaviy xitoy tili va yozuvining negizi ekanligini bilib olish mumkin. Shu tariqa ular o'zining qadimiy va boy madaniyati, urf-odatlarini, tarixini o'z yozuvlarida saqlab qolishga muvaffaq bo'lishdi.

Fikrimizcha, qadimda ham xitoy xalqi o'z yozuvi va uning an'analarini saqlab qolishga harakati natijasida vujudga kelgan 尔雅 «Erya» lug'ati o'z davrining mukammal va funksional lug'atlari toifasiga kiradi. Shu davrning o'ziga xos xususiyatlari va iyerogliflarning tuzilishi hamda asl ma'nosini yetkazib bergan lug'atlar orasiga kiritsa bo'ladi. Shuningdek, -尔雅 «Erya» lug'ati iyerogliflarning to'g'ri talaffiiz qilish sistemasi ishlab chiqilgan ilk lug'atdir. Agarda xitoy yozuvining rivojlanish tarixiga ahamiyat berib qaralsa, xitoy xalqi har bir iyeroglifning ma'nosiga alohida e'tibor berilgani, uning yetkazib beradigan ma'no tushunchasi aniq yetib borishini ta'minlash va uni yozma shaklda aks ettirish harakati hurmatga sazovor.

说文解字 "Shuo wen jiezi" lug'ati hozirgi zamon lug'atlaridagi kalitlar sistemasiga asoslanganligining ilk ko'rinishi desa bo'ladi. O'z davrining mashhur lug'ati hisoblangan 说文解字 "Shuo wen jiezi" hozirgi zamon iyerogliflari, neologizmlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu qatorda, to hozirgi kungacha amalda bo'lgan iyerogliflarni turkumlash ham ushbu lug'atning yanada funksional va ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turadi.

字彙 *Zi hui* lug'ati iyeroglifni o'qish va uning ma'nosini taxlil qilishda qator noqulayliklar keltirib chiqargan bo'lsada, shunga qaramasdan o'ziga xos sistemaga ega bo'lgan. Ya'ni, iyerogliflarni yozish va o'qishda leksikografiyada yangilikka intilingan. Ushbu lug'atning tarixiy yo'li keyingi avlod lug'atlari uchun izlanishlar olib borish uchun turtki bo'lib xizmat qildi. Bu toifadagi lug'atlar xitoy tilini lug'atlashtirish va uni aniq sistemaga solish yo'lidagi eng uzoq muddatli yo'l bosib o'tgan va turli tuman o'zgarishlarga uchragan lug'atlar sistemasi deb ta'kidlab o'tish lozim. Endilikda keyingi avlod lug'atlari ancha murakkablashdi va har bir lug'at ustida tinimsiz faoliyat bitta leksikograf tomonidan emas, balki bir qancha mutaxassislik vakillarining bevosita yordami va ishtiroki asosida olib boriladigan bo'ldi.

Chengyularga oid lug'atlar katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, xitoy tilida frazeologizmlarni o'rganish jarayonida qimmatbaho qo'llanma sifatida foydalaniladi. Aytib o'tish joizki, xitoy tilini o'rganuvchi har bir chet ellik talaba bevosita shu tilning frazeologizmi va iboralarini o'rganishi zarur. Gap tuzish va muloqot jarayonida iboralar, frazeologizmlardan foydalanish til zahirasini boyitish, ularni joyida va vaqtida qo'llay olishga yordam beradi.

Lug'atlarning har tomonlama mukammal, funksional, uzoq muddatga foydalanishga mo'ljallangan va iyerogliflarni aniqlashda tez va oson tizimga solingan lug'atlar tuzish ehtiyoji kelib chiqdi. Har bir imperator va davlat rahbarlari o'z zamonasiga xos ravishda zamon va makon tushunchalaridan kelib chiqqan holda lug'at tuzishga harakat qilingan.

To bizning zamonamizgacha yetib kelgan xitoy yozuvi boshqa yozuvlardan tubdan farq qilishi, shuningdek, xitoy yozuvi asosida Koreys, Yapon millatlarining ham yozuvlari paydo bo'lishi, hatto madaniyatlar ham bir - biri bilan chambarchas bog'liqligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Hech qaysi o'quvchi - talaba chet tilini lug'atsiz o'rganishini ko'z oldimizga keltirib bo'lmaydi. Xususan, xitoy tilini lug'atsiz o'rganish noreal jarayon deyish ham mumkin. Bizga ma'lumki, xitoy tilida

so'zlashish uchun o'rtacha 3000 - 4000 iyeroglifni yoddan bilish yetarli. Aslida inson faktorida 3000 - 4000 iyeroglifni yodda tutish faqatgina doimiy so'zlashuv natijasida amalga oshirish mumkin. Bizning holatimizda, doimiy Xitoy da istiqomat qilish imkoniyati yo'q shaxslar uchun o'zi bilan kichik lug'at olib yurish maqsadga muvofiq. Zamonaviy xitoy lug'atlarining qulay va hozirgi zamon texnik taraqqiyot bilan hamnafas tarzda o'z funksiyasini bajarib kelayotganini ko'rish mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:**

1. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" Toshkent. 2005

### **Xitoy tilidagi adabiyotlar:**

1. "现代汉语语法"

### **O'zbek tilidagi adabiyotlar:**

1. Hidoyatova Sh., Karimov A., Aminov E., Xitoy tili grammatikasi (fonetika va iyeroglifik yozuv), T., 2006.
2. M.H.Mahmudxadjayev, M.A.Turatova "Xitoy tili tarixiy fonologiyasi" Toshkent - 2009
3. M.A.Hamroyev. "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi"
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
5. S.A.Nosirova,S.A.Hoshimova. O'zbekcha-xitoycha so'zlashgich. Toshkent, "A.Navoiy nomidagi kutubxona", 2011 y.
6. S.A.Nosirova "Xitoy tili tarixi" o'quv qo'llanma. Toshkent - 2011
7. S.A.Nosirova "Xitoy tilshunosligi tarixi" o'quv qo'llanma. Toshkent - 2009
8. S.A.Nosirova. Xitoy tilshunosligi tarixi fanidan o'quv-uslubiy majmua. Toshkent – 2014

### **Rus tilidagi adabiyotlar:**

1. Ван Ли "Фонетика китайского языка"
2. Ван Ляо-И "Основы китайской грамматики" Издательство Иностранной литературы. Москва \*1954
3. Вестник Челябинского Государственного Университета. 2011 г. №21

4. "Китайские словари через тысячелетия вступают в век информационных технологий" Ким В.С "Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi - 2011
5. Люй Шу-сян "Очерки по грамматике китайского языка" Издательство Восточной литературы. Москва \*1961
6. Семенас А.Л " Лексикология современного китайского языка" — М.: Наука, 1992.
7. Семенас А.Л. Лексика китайского языка. — М.: Муравей, 2000
8. Солнцев В.М "Введение в теорию изолирующих языков. В связи с общими особенностями человеческого языка" М., Вост.лит. 1995. 352 стр. 1500 экз.
9. Солнцев В.М " Очерки по современному китайскому языку" (Введение в изучение китайского языка). М., Изд-во ИМО. 1957. 207 стр. 3250 экз.
- 10.«Тихоокеанский государственный университет»  
Кафедра русской филологии. Дисциплина на тему: "Лингвистика"
- 11.Фролова М.Г "Словообразование в современном китайском языке"
- 12.Фролова М. Г «Китайский язык. Справочник по глаголам»
- 13.Фролова М. Г «Китайский язык. Справочник по грамматике»
- 14.Чан Ши-лу "История фонетики китайского языка"

#### **Lug'atlar:**

1. S.A.Nosirova. Xitoycha-o'zbekcha-ruscha diplomatik atamalar lug'ati.- Toshkent, 2004 y.
2. Буров В. Г., Семенас А. Л. Китайско-русский словарь новых слов и выражений. - Восточная книга 2007
3. Китайско - русский словарь. Москва. Издательство "Шаньуйньшугуань" 2008 г.

#### **Internet saytlari:**

1. <http://www.tashgiv.uz>
2. <http://www.lib.csu.ru/vch/236/016.pdf>

3. [http://www.wikipedia.org/Китайский язык](http://www.wikipedia.org/Китайский_язык)

4. [http://www.wikipedia.org/Xitoy tili](http://www.wikipedia.org/Xitoy_tili)

**尔雅 "Erya"** Eramizdan avvalgi III - II asrlarda qadimgi Xitoy olimlarining jamoaviy mehnati bilan paydo bo'lgan. Boshqa variantlarda bu lug'atlarning muallifi sifatida Konfutsiy yoki Chjou Gun e'tirof etiladi. Xitoy filologi Lyu Ye Suyning fikricha, lug'atning bosh maqsadi Xan sulolasi davri (eramizdan avvalgi 206 - eramizning 220 yili) da yozilgan matnlarga izoh berish edi.

### 说文解字 "Shuo wen jiezi"

Ilk bor mavjud barcha lug'atlarning soni Xan sulolasi davrida xitoy olimi Suy Shen tomonidan sanab chiqilgan bo'lib, uning barcha mehnati 说文解字 Shuo wen jie zi lug'atida o'z aksini topgan va 9353 iyeroglifni o'z ichiga olgan.

**康熙字典 "Kangxi zidian"** Kansi cidian (康熙字典), Sin sulolasi davrida tuzilgan bo'lib, o'zida 47 035 iyeroglifni mujassamlashtirgan.

**新华字典 Xin hua zi dian** Shan'u nashriyotida chop etilgan bo'lib, 1998 yilda uning yangi tahriri nashr etilgan. Lug'at tarkibiga 11100 iyeroglif jamlangan. Bu Xitoyda eng nomi chiqqan lug'atdir.

**中华大字典 "Zhong hua da zidian"** Tayvanda chop etilgan bo'lib, 49 905 iyeroglifdan iborat.

**汉语大字典 "Han yu da zi dian"** Katta xitoy tili lug'ati nashriyoti tomonidan chop etilgan. 1992 yilda uning oxirgi 12 tomi nashrdan chiqqan. Uning bosh muharriri Lo Chjufen. Bu qadimgi va zamonaviy xitoy tilining eng katta lug'atidir. U o'z ichiga 375000 ta lug'at maqolalarni jamlagan.

Zamonamizning yangi lug'atlaridan biri **中华字海 zhonghua zihai** 85 568 iyeroglifdan iborat va ikki lug'atdan tashkil topadi: 汉语大字典 Hanyu da zi dian hamda 中文大字典 zhongwen da zi dian

**日本今昔文字镜 "Ribben jinze wen zi jing"** hozirgi kunda eng ko'p iyerogliflar sonini jamlagan — iyerogliflar soni 150 mingtani tashkil etadi.

**中华字海 "Zhonghua zihai"** 1994 yilda nashr etilgan iyerogliflar lug'ati o'zida 87 019 iyeroglifni qamrab olgan.

**"Xitoy tilining eng ko'p qo'llaniladigan 8000 so'zi lug'ati"** Bosh muharriri - Lyuy Shusyan. 1999 - yilda Shan'u nashriyoti uni qayta tahrirlangan nashrini chop etgan. Lug'at tarkibida 1000 ga yaqin lug'at maqolalari jamlangan. Yordamchi so'zlar unda o'ziga xos o'rinni egallaydi.

### 现代汉语词典

**"Xian dai han yu ci dian"** Xitoy Xalq Respublikasining Ijtimoiy Fanlar akademiyasi Lingvistika instituti tomonidan tuzilgan. 1996 yil Shan'u nashriyoti uning yangi nashrini chop etgan. Lug'atda tahminan 60000 ta maqola mavjud. Ushbu lug'at amaliy qiymatga ega bo'lib, unda putunhua

**Zamonaviy elektron lug'atlar**